

**Kreativ iqtisodiyot siyosatini rivojlantirish
uchun grantlar ishlab chiqish va taqdim etishni
qo'llab-quvvatlash**

**O'zbekistonda kreativ sanoat
birlashmalarini rivojlantirish va
takomillashtirish bo'yicha
tavsiyalar**

"Madaniyatlararo Hamkorlik" MChJ

May, 2022

Qisqacha umumiy ma'lumot

1990 yillardan e'tiboran O'zbekiston hukumati turli xalqaro tashkilotlar va agentliklar ko'magi ostida madaniyat va kreativ soha vakillari va bizneslarining o'sishi va barqarorligini qo'llab-quvvatlash chora tadbirlarini ko'rishni boshladi.

So'nggi paytlarda bu turizm industriyasini va uni qo'llab-quvvatlashga, shuningdek, ko'ngilochar biznesni rivojlantirishga yordam beradigan an'anaviy san'at va hunarmandchilikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Ushbu uzoq muddatli jarayonga hissa qo'shgan holda Britaniya Kengashi ma'lumotlar bazasini yaxshilash hamda O'zbekiston va Buyuk Britaniya o'rtasidagi kelajakdagi hamkorlik sohalarini o'rganish bo'yicha Markaziy Osiyo, Janubiy Kavkaz va Sharqiy Yevropaning ayrim hududlarida kreativ iqtisodiyotning o'sishini qo'llab-quvvatlash maqsadida o'z dasturining bir qismi sifatida ushbu tadqiqotni amalga oshirdi. Dasturning asosiy maqsadi - miqdoriy va sifat manbalariga tayangan holda O'zbekistondagi kreativ industriyalarning umumiy ma'lumotlarini taqdim etish, sohaning manfaatdor tomonlari bilan o'zaro hamkorlik qilish hamda sohani yanada rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha keyingi qadamlar bo'yicha tavsiyalar berishdan iborat edi.

Bizning xulosalarimizni ishlab chiqishda mualliflar quyidagilarga tayangan holda ish olib bordilar: mavjud rasmiy statistikadan unumli foydalanish; tegishli adabiyotlar taqrizlaridan samarali foydalanish; manfaatdor tomonlar va bir qator soha mutaxassislari bilan fokus-guruhlar tashkil etish; va ijod biznes korxonalarining ochiq so'rovini o'tkazish. Ushbu hisobotda quyidagilar o'rin olgan:

- Mavjud dasturlar haqida qisqacha ma'lumot: O'zbekiston hukumati va boshqa xalqaro tashkilotlar, jumladan Britaniya Kengashi, Shveytsariya hukumati va UNESCO homiyligida boshqariladigan dasturlar.
- Hozirda mavjud cheklangan rasmiy ma'lumotlarga asoslangan sektor tahlili, jumladan, turli ijodiy subsektorlar bo'yicha korxonalar soni va hajmi taqsimotini (xodimlar bo'yicha) xaritalash – biz kreativ industriyalari bo'yicha 10 000 ga yaqin biznes korxonalarini aniqladik, ularning aksariyati 10 dan kam bo'lgan xodimlar soniga ega (ma'lumot boshqa mamlakatlar bilan mos keladi).
- Fokus-guruh muhokamalarida va biznes so'rovlarida ko'tarilgan muammolarning tafsilotlari, keng ko'lamli dolzarb mavzularga asoslangan, jumladan: kerakli ma'lumotlarning qamrovi, an'anaviy va ayni damda zamonaviy kreativ sektorlarning ahamiyati; mintaqaviy tafovutlar; institutsional tuzilmalar va tartibga solish; ko'nikmalarni shakllantirish; moliya va xalqaro bozorlarga chiqish, hamda auditoriyani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari.

Hisobot, xususan, ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyojni muvofiqlashtirish, ko'nikmalar strategiyasiga (ayniqsa, biznes, marketing va ishlab chiqarish ko'nikmalariga) e'tiborni qaratish va hukumat hamda kreativ industriyalari o'rtasida tizimli hamkorlik zarurligini ta'kidlagan bir qator tavsiyalarni taqdim etadi. Tavsiya etilgan yo'llarning tafsilotlari "Asosiy topilmalar" bo'limidagi har bir mavzu ostida, hujjat oxirida tavsiyalarning to'liq umumlashtirilgan ro'yxati bilan tavsiflanadi. Belgilangan ehtiyojlarning asosiy yo'nalishlari quyidagilardir:

-
- Ijodiy industriyaning yagona ta'rifini tasdiqlash.
 - Taklif etilgan Ma'lumotlarni Takomillashtirish Rejasiga to'liqroq ma'lumotlarni kiritish.
 - An'anaviy san'at va hunarmandchilik sohasining ayrim tarmoqlarini yangicha yo'sindagi badiiy amaliyotlar va raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish.
 - Kreativ korxonalarining yangi klasterlarini va ularni qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni aniqlash maqsadida galdagi tadqiqotlar va mintaqaviy ma'lumotlarni to'plash.
 - Tadbirkorlik faoliyatining davlat tomonidan tartibga solinishi, intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish va mualliflik huquqini himoya qilish, fiskal rag'batlantirish va malaka oshirish kabi masalalarni hal qilish uchun qo'shma davlat-sanoat organini tashkil etish.
 - Biznes va tadbirkorlik ko'nikmalariga, shuningdek, kreativ va texnik sohalari ko'nikmalariga bo'lgan ehtiyojlarni e'tiborga olish.
 - Mamlakatda sarmoya va biznesni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash hamda kreativ industriyani xalqaro miqyosda ilgari surish bo'yicha mavjud tashabbuslarni yanada takomillashtirish.
 - Mamlakatda va xorijda madaniy meros turizmini rivojlantirishga yanada muvofiqlashtirilgan yondashuv.
 - Tomoshabinga yo'naltirilgan rivojlanish strategiyalarini ko'rib chiqish (ayniqsa Toshkent shahridan tashqari hududlarda)

Kirish Qismi

Kreativ Industriyasining O'sishi

Covid-19 pandemiyasidan oldin kreativ industriyasi jadal rivojlanayotgan global tarmoqlardan biri bo'lgan va so'nggi muvaffaqiyatsizliklarga qaramay, bu soha xalqaro miqyosda kelajakdagi iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida tobora keng e'tirof etilmoqda. Masalan, UNESCO tashkiloti hisob-kitoblariga ko'ra, hozirgi vaqtda madaniyat va kreativ sohalari jahon YIM ning 3,1%ni va barcha ish o'rinlarining 6,2% ini tashkil qiladi. ¹

Sektor sun'iy intellekt va avtomatlashtirishga ham chidamli, Buyuk Britaniyada joylashgan Nesta innovatsiya jamg'armasi tomonidan o'tkazilgan tadqiqot kreativ sohadagi ish o'rinlarining atigi 15% avtomatlashtirish bilan almashtirilishi mumkinligini ko'rsatdi. ²

Kreativ industriyasi va madaniyat sohasida samaradorlik, o'sish va bandlikning bevosita iqtisodiy foydadan tashqari, so'nggi yillarda ular ta'lim, malaka, sog'liq va farovonlik, milliy qadriyatlar va globallashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgani e'tirof etilmoqda; ijodkorlik va madaniyatni qo'llab-quvvatlashga yanada yaxlit, izchil va inklyuziv yondashuv orqali erishish mumkin bo'lgan keyingi qiymat, shu jumladan, alohida shaxslarning kreativ sohalarda faolligini rag'batlantirishga, tijorat va homiylik faoliyati o'rtasidagi aloqa nuqtalaridan foydalanishga ko'proq e'tibor qaratish kreativ ekotizim yaratish uchun muhim ahamiyatga ega. ³

O'zbekistondagi Kreativ Industriya

Garchi bir qator kreativ tarmoqlar uchun muhim profil va o'sish imkoniyatlari (jumladan, ichki turizm uchun lokomotiv sifatida) mavjud bo'lsa ham, shu kungacha O'zbekistonda kreativ industriya va kreativ iqtisodiyot izchil siyosat konsepsiyasi sifatida keng e'tirof etilmagan. Bu, ayniqsa, hunarmandchilik va to'qimachilik, shuningdek, muzeylar va teatrlar kabi tomoshabinlarga yo'naltirilgan bizneslarda yaqqol ko'zga tashlandi.

1990 yillarning boshlarida mustaqillikka erishganidan so'ng O'zbekiston hukumati madaniyat va kreativ soha vakillari biznesini qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Ular Britaniya Kengashi va boshqa global institutlar dasturlari bilan bir qatorda o'sish, salohiyatni oshirish, tadbirkorlik, hamkorlikni rivojlantirish va bilim almashishni rag'batlantirishga intildi. (Mavjud Siyosat va Dasturlarga qarang). So'nggi paytlarda hukumat turizmning o'sishi va "Ko'ngilochar Biznes"ni rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Kreativ biznes ikkalasida ham muhim rol o'ynashi mumkin. Bu borada mamlakatning boy tarixiy - madaniy merosini hisobga olgan holda, o'ziga xos tarzda, iqtisodiyotning boshqa muhim tarmoqlariga ham hissa qo'shishda soha ulkan salohiyatga ega.

O'zbekistonda kreativ industriyaning ahamiyati va salohiyati siyosatchilar orasida tobora e'tirof etilmoqda. Biroq, O'zbekistonda bunyodkorlik tarmoqlarini tizimli transformatsiya qilish amalga oshirilmagan. Sektorning profili, geografik tarqalishi va salohiyati to'g'risidagi mavjud ma'lumotlar cheklangan va bir-biriga ziddir. Masalan, Toshkentda kreativ industriya sezilarli darajada to'planganligi tushuniladi, dunyoning boshqa ko'plab mamlakatlaridagi kreativ sohalarda bo'lgani kabi, bu sohada faoliyat yuritayotganlarning aksariyati frilanserlardir, ammo mavjud ma'lumotlar buni to'g'ri o'lchash imkonini bermaydi.

¹ UNESCO (2022)

² LGA (2020) Pg.6

³ The Warwick Commission (2015)

Mazkur Loyiha

Britaniya Kengashi ushbu loyihani Markaziy Osiyo, Janubiy Kavkaz, Turkiya, Ukraina va G'arbiy Bolqon mamlakatlarida siyosatni ishlab chiqish, tadbirkorlik va madaniy sohalar yetakchiligiga qaratilgan yangi uch yillik kreativ iqtisodiyot dasturini yaratdi. Yangi dastur Buyuk Britaniya bilan aloqalar orqali ushbu mamlakatlarda kreativ sektorni rivojlantirishga imkon beradi, bunda "o'tish davridagi" mamlakatlarni kreativ iqtisodiyotni rivojlantirishda qanday dastak berish va uning taraqqiyotini qo'llab-quvvatlash uchun amaliy choralar ko'rishga alohida urg'u beradi. Bu shuningdek, Buyuk Britaniyadagi hamkorlar bilan uzoq muddatli hamkorlik qilish maqsadida yangi hamkorlikni rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi.

Ushbu loyihaning umumiy maqsadi mavjud ma'lumotlar, adabiyotlar va manfaatdor tomonlarning soha bilan aloqalari asosida O'zbekistondagi ijodiy sohalarning birinchi umumiy xaritasi va profilini yaratish edi.⁴ Biz cheklangan miqdorda statistik ma'lumotlarga ega bo'ldik, lekin undan boshqa ma'lumotlar bilan bir qatorda (sifatli tadqiqotlar va intervyularga jiddiy tayangan holda) keng tahlil qilish, O'zbekistondagi ijodiy sohalarning hozirgi shaklini yoritib berish va kelgusida sektorni rivojlantirish uchun keng ko'lamli tavsiyalar berishda foydalandik. Shuni ta'kidlash kerakki, topilmalar indikativ (taklif beruvchi) xususiyatga ega va ularni takomillashtirish va amalga oshirish uchun aniq rejalarni ishlab chiqish uchun qo'shimcha tadqiqotlar va ishtirok etish zarur bo'ladi.

Britaniya Kengashining ko'plab mamlakatlar, jumladan, Markaziy Osiyodagi loyihalariga asoslangan ushbu loyiha natijalari O'zbekistondagi kreativ biznes va biznes investorlarga hamda hukumat va dastur tuzuvchilarga ijobiy yordam ko'rsatishga mo'ljallangan.

Oldinga qoy'yilgan **maqsadlar** quyidagilardan iborat:

- Xalqaro Standart Sanoat Tasnifi (ISIC) kodlari asosida O'zbekiston uchun kreativ industriyalarni belgilash bo'yicha tavsiyalar.
- Kreativ industriyaning milliy profilini dastlabki xaritalash, shu jumladan uning mamlakat iqtisodiyotiga qo'shgan hissasi.
- O'zbekistonda kreativ sohalarni yanada rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha siyosatiga tegishli tavsiyalar.

Quyidagi **natijalarga** erishildi:

- O'zbekistonda asosiy iqtisodiy sektor sifatida kreativ industriyasining ta'rifi va profili bo'yicha umumiy tushuncha mustahkamlandi.
- Kreativ industriyasini rivojlantirish va O'zbekiston hukumati oldiga maqsad qilib qo'ygan ustuvor yo'nalishlariga, shu jumladan turizm sohasiga qo'shgan hissasi bo'yicha siyosatini ishlab chiqish uchun kerakli ma'lumotlar bazasini yaxshilash.
- Britaniya Kengashi va O'zbekiston hukumati o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish uchun asos.

⁴ Bu Britaniya Kengashining 2018 yilda Qozog'istondagi kreativ sanoat birlashmalarining xaritasini tuzish bo'yicha o'tkazgan avvalgi tadqiqotidan so'ng bo'lib o'tdi, bu sohani rivojlantirishda muhim bosqich va so'nggida O'zbekiston uchun namuna sifatida ko'rildi. See Pratt et al. (2018)

Loyihani yaratishda faol ishtirok etgan “Counterculture Partnership LLP” (Buyuk Britaniya) maslahatchilari – Jon Zeff, Jon Nyubigin va Tara Tank, Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg’armasi (O‘zbekiston) ko‘magida loyihaning asosiy hamkori sifatida olib borishdi. Loyiha mahalliy ekspert Gunesh Hodjakuli tomonidan qo‘llab-quvvatlandi va Britaniya Kengashining O‘zbekistondagi direktor o‘rinbosari Jamilya Gulyamova va Qozog‘istondagi Madaniyat va san’at bo‘limi rahbari Galina Koretskayalar tomonidan ishlab chiqildi.

Hisobot quyidagi bo‘limlardan tashkil topgan:

- **Metodologiya**
- **Mavjud Siyosat va Dasturlar**
- **O‘zbekistondagi kreativ industriyasini xaritalash**
- **Asosiy Natijalar**
- **Tavsiyalar va Xulosalar**
- **Ilovalar**

Metodologiya

Kreativ va madaniyat sohalari yoki kreativ iqtisodiyotning umume'tirof etilgan ta'rifi mavjud emas. Iqtisodiyot sektorlari yoki sohalari ular o'z ichiga olgan faoliyat turlarini belgilashda tegishli siyosatlarga ta'sir qilishi mumkin (masalan, moliyalashtirish, qo'llab-quvvatlash, soliqqa tortish, ta'lim sistemasi, xalqaro savdo, iqtisodiy rivojlanish, huquq va hokazo). Buyuk Britaniyaning Nesta Innovatsion agentligi buni shunday tushuntiradi:

*“To'g'ri siyosatni shakllantirishda aniq ta'riflar va ishonchli iqtisodiy statistika muhimligini ta'kidlash oson. Shunga qaramay, ushbu vositalarsiz siyosatchilar **bandlik va o'sishning eng muhim manbalarini** yo'qotishda hatoliklarga qo'l urishi xavfi bor; **izchil siyosat asosini saqlab qolish ancha qiyinlashadi va taraqqiyotni kuzatish** imkonsiz bo'lib qoladi.”⁵*

Siyosatchilar ijodiy sohalarni tasniflash va belgilashda o'zlarining noyob holatlari va mavjud ma'lumotlarga asoslanib, o'zlarining yondashuvlarini qabul qildilar: ba'zilar uchun bunday ta'riflar san'at va madaniyat bilan chambarchas bog'liq (yoki hatto ular bilan cheklangan); boshqalar uchun ular oziq-ovqat, turizm, sport, madaniy meros, ta'lim, IT yoki “ko'ngilochar biznes”ni o'z ichiga olishi mumkin. Ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan ko'plab mahalliy madaniy amaliyotlar va an'analar mavjud. Misol uchun, "qo'g'irchoq teatri" ba'zi mamlakatlar tasnifida mavjud (masalan, Ukraina, Qozog'iston), lekin boshqalarga bu begona tushuncha (masalan, Buyuk Britaniyada).

Buyuk Britaniya boy tarixga ega va kreativ davlat sifatida jahon miqyosida shuhrat qozongan. Shuningdek, intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish va mualliflik huquqini himoya qilish tizimiga ega. 1990 yillarda Buyuk Britaniya hukumatining Raqamli, Madaniyat, Ommaviy axborot vositalari va Qo'llab-quvvatlash departamenti (DCMS)⁶ kontseptsiyani rasmiylashtirdi va sohani ko'lami va iqtisodiy qiymati bo'yicha baholadi; ko'plab mamlakatlar va tashkilotlar, jumladan UNCTAD⁷ va UNESCO⁸ madaniyat sohasiga aloqador statistikani yuritishda qolip sifatida ishlatib keladigan innovatsion harakatdir.

Shu nuqtai nazardan, ushbu bo'lim O'zbekiston uchun qolip (model) sifatida ishlatiladi.

Ta'riflar: Kreativ Industriya va Kreativ Iqtisodiyot

To'liq kontekst va ustuvorliklar mamlakatdan mamlakatga farq qilsa-da, kreativ sohalarni aniqlashga bo'lgan yondashuv xalqaro miqyosda, xususan, kreativ siyosatni shakllantirish, amalga oshirish va baholash bo'yicha boy tajribaga ega mamlakatlarda qanday rivojlanganligini ko'rib chiqish juda ham foydalidir.

1990 yillarda Buyuk Britaniya kreativ industriyaga asos solganidan boshlab, Buyuk Britaniyada va butun dunyoda kreativ industriyani yanada chuqurroq tushunish rivojlandi. Insonlar

⁵ Nesta (2013) Pg.26

⁶ DCMS Buyuk Britaniyadagi san'at, madaniyat va ijodiy sohalari hamda Buyuk Britaniyadagi ommaviy axborot vositalarining ayrim jihatlari (masalan, radioeshittirish, internet) uchun mas'ul bo'lgan hukumat departamentidir. DCMS, shuningdek, HM Hukumatining boshqa bo'limlari bilan hamkorlikda madaniyat va kreativ sohalarga nisbatan qo'shma mas'uliyat sohasida ishlaydi, masalan: soliq imtiyozlari, biznesni qo'llab-quvvatlash, savdo va investitsiyalar, ta'lim va o'qitish.

UNCTAD (n.d.)

⁷ UNCTAD (n.d.)

⁸ UNESCO (2009)

madaniyat va ijodkorlik sohalari haqida kengroq tushunchaga ega bo'lishdi. An'anaviy san'atdan tortib kompyuter o'yinlari va kinematografiya kabi raqamli industriyaga kirib bordi. Texnik asbob-uskunalarni ishlab chiqarish, chakana savdosi va ta'mirlash kabi sohalarda uchratish mumkin.

2001 yilda DCMS tomonidan taqdim etilgan kreativ sohalarning umumiy ta'rifi:

*"Individual ijodkorlik, mahorat va iste'doddan kelib chiqqan holda, intellektual mulkni yaratish va ekspluatatsiya qilish orqali daromad ko'rish va ish o'rinlarini yaratish potentsialiga ega bo'lgan soha – kreativ soha deyiladi."*⁹

1 Jadval: DCMS Ijodiy sohalarning tasnifi

Kreativ Industriya Sektori
Reklama va marketing
Arxitektura
Hunarmandchilik
Moda va Dizayn
Film, TV, video, radio va suratga olish
IT, dasturiy ta'minot va kompyuter xizmatlari
Nashriyot
Muzey, galereya va kutubxonalar
Musiqqa, ijro san'ati va tasviriy san'at

Shuni ham ta'kidlash kerakki, DCMS doirasida madaniyat, raqamli va turizm sektorlari bilan bir qator o'xshashliklar mavjud.¹⁰

O'shandan beri "ijodiy intensivlik" g'oyasiga asoslanib, kreativ sohalarni tushunish rivojlandi - bu asosan ijodiy rollarda bo'lgan ishchi kuchining nisbati o'lchovidir. Shu bilan birga, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida kreativ sohada bandlikni ta'minlash maqsadida kengroq "kreativ iqtisodiyot" kontsepsiyasi ishlab chiqildi.

Kreativ iqtisodiyot quyidagicha ta'riflangan:


*"Kreativ sohalardan tashqarida ijodiy kasblarda faoliyat yuritayotganlarning, shuningdek, kreativ industriyada band bo'lganlarning hissasini o'z ichiga oladi."*¹¹

⁹ DCMS (2001) Pg.5

¹⁰ DCMS (2021)

¹¹ DCMS (2016) Pg.3

1 Jadval: Kreativ Iqtisodiyotning Evolyutsiyasi. Manba: Newbiggin, John (2010) *The Creative Economy: An Introductory Guide*. Online at <https://creativeeconomy.britishcouncil.org/blog/10/03/08/creative-economy-introductory-guide/>



Ushbu loyihaning asosiy e'tibori O'zbekistondagi kreativ industriyaning dastlabki xaritasini yaratishga qaratilgan bo'lsa-da, shuni ta'kidlash joizki, ushbu tarmoqlar bandlik nuqtai nazaridan kengroq ijodiy iqtisodiyotning markazida turadi:

“Kreativ iqtisodning bir qismi o'laroq, faqat ijodiy sohalarda ishlaydiganlarni (va ijodiy kasbda yoki boshqa rollarda bo'lishi mumkin bo'lgan, masalan, moliya sohasida) o'z ichiga oladi.”¹²

Keyingi bo'limda DCMS tasnifi va mahalliy kontekstdan foydalangan holda ushbu loyihaning maqsadlari uchun kreativ industriyasi qanday aniqlanganligi tasvirlangan.

Analitik Asos

2011 yilda O'zbekiston yangi va muhim faoliyatni, shu jumladan texnologik yoki tashkiliy o'zgarishlar natijasida yuzaga kelgan faoliyatni, xalqaro miqyosda solishtirish mumkin bo'lgan statistik ma'lumotlarni tayyorlash va tarqatishni yaxshiroq aks ettirish maqsadida Iqtisodiy Faoliyat Turlari Milliy Tasniflagichini¹³ qayta ko'rib chiqdi. .

Boshqa iqtisodiy statistik asoslar singari, u iqtisodiy faoliyat birliklarini (alohida korxonalar yoki korxonalar guruhlari) tasniflashni va ishlab chiqarish, bandlik, milliy hisoblar kabi iqtisodiy statistika sohasida statistik ma'lumotlarni tayyorlash uchun asos yaratishni nazarda tutadi.

Tasniflagich 5 darajali ierarxik tasnifdan foydalanadi. U NACE Rev.2¹⁴ ni to'g'ridan-to'g'ri to'rtta raqamli darajada (Yevropa Komissiyasi tomonidan 2006 yilda qabul qilingan "Yevropa

¹² Ibid. Pg.4

¹³ O'zbekistonda qabul qilingan/o'zgartirilgan boshqa statistik tasniflagichlar uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasiga qarang. (2021)

¹⁴ NACE AQShdan tashqarida qo'llaniladigan standart statistik tizimdir.

hamjamiyatidagi iqtisodiy faoliyatning statistik tasnifi") to'g'ridan-to'g'ri qo'llash orqali xalqaro tasniflash bilan uyg'unlashtirilgan. Shu bilan birga 5-darajani milliy iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlarini ham aks ettiradi. Xalqaro tizimning qabul qilinishi ushbu loyihada ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish imkonini ham berdi.

Buyuk Britaniyada va xalqaro miqyosda Kreativ Industriyasi ta'rifi ijodiy industriyalar uchun maxsus xalqaro tasnif kodlari (ISIC) bilan taqqoslanadigan to'qqizta asosiy kichik sektorlarni tan oladi. Keyin ular NACE Rev. 2 ga talqin qilinadi (DKMSga muvofiq):

- Reklama va marketing
- Arxitektura
- Hunarmandchilik
- Moda va Dizayn
- Film, TV, video, radio va suratga olish
- IT, dasturiy ta'minot va kompyuter xizmatlari
- Nashriyot
- Muzey, galereya va kutubxonalar
- Musiqa, ijro san'ati va tasviriy san'at

Biroq, rasmiy ma'lumotlar bazasi, chunonchi O'zbekiston uchun olingan ma'lumotlar, odatda kreativ industriyalarni aniqlamaydigan va alohida o'lchamaydigan iqtisodiyot tarmoqlari uchun o'zgacha toifalashdan foydalanadi. Ushbu toifaga ko'ra, kreativ industriyaning kichik tarmoqlari 5 ta asosiy sektor bo'yicha taqsimlanadi:

- Ishlab chiqarish
- Axborot- kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa sohasi
- Professional ilmiy-texnik xizmatlar
- Ta'lim
- San'at va madaniy - ko'ngilochar biznesi

Ma'lumot olish va baholash

Ushbu hisobot maqsadlari uchun biz Qozog'istonda qabul qilingan ta'riflarga moslashtirish maqsadida 4 raqamli koddagi DCMS tasnifidan (NACE Rev.2) foydalandik. Bu O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 4 raqamli darajasidagi rasmiy statistik ma'lumotiga nisbatan qo'llanildi. Biz ma'lumotlarni yaxshilash va O'zbekiston uchun kreativ industriyasi ta'rifini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berib boramiz. Ammo xalqaro miqyosda aniq taqqoslash imkonini yaratish maqsadida ushbu yondashuvga yaqin bo'lishini tavsiya qilamiz. Kreativ industriyaga tegishli O'zbekistondagi statistik kodlarning to'liq ro'yxati (to'rt raqamli darajadagi) har qanday istisnolar bilan birga llovalarda keltirilgan.

Maqsadimiz milliy va submilliy darajada va vaqt oralig'ida turli xil ma'lumotlarni to'plashdan iborat edi. Manba ma'lumotlariga asoslanib, biz milliy darajada 5 yillik davrni baholashga muvaffaq bo'ldik:

- Bandlik
- Biznesni ro'yxatga olish (yuridik shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish)
- Yalpi ichki mahsulot

Tahlildan ma'lum bo'ldiki, hozirda mavjud bo'lgan rasmiy statistik manbalar deyarli to'liq bo'lmagan bo'lib, sektor hajmi va profili haqida aniq tasavvur hosil qilish uchun qo'shimcha ma'lumotlarni to'plash va monitoring qilish zarur (qarang "To'liqroq ma'lumotlar" Asosiy topilmalar va xulosalar/tavsiyalar). Biz o'z tahlilimizni e'tiborga olgan holda taqdim etdik va ma'lumotlardan qo'shimcha xulosalar chiqarishda ehtiyotkorona foydalanamiz.

Qo'shimcha Metodologiya

Yeg'ilgan ma'lumotlarni ko'rib chiqish - mavjud milliy (yoki tegishli xalqaro) siyosatlar, strategiyalar, dalillar, hisobotlar, tadqiqotlar va ta'sir kuchini baholash kabi tegishli ma'lumotlar va adabiyotlarni tahlil qilish.

Manfaatdor tomonlarning ishtiroki – Toshkent va Samarqanddagi kreativ yetakchilar va vakillar, shuningdek, hukumat amaldorlari bilan fokus-guruh suhbatlari. Muhokamaning asosiy mavzulari ma'lum imkoniyatlar va muammolar, tarmoqlarning ahamiyati va hukumatning roli.

So'rovnoma shaklida - tanlangan fokus-guruh ishtirokchilari uchun biznes so'rovi. So'rov kichik namunani berdi va u sektorning foydali suratini taqdim etsada, natijalarni shaxsiy hikoya sifatida ko'rib chiqish kerak.

Mavjud Siyosat va Dasturlar

Ushbu bo'limda O'zbekistonda kreativ industriya va san'at, madaniy- meros sohalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan asosiy tarixiy va zamonaviy chora-tadbirlar haqida umumiy ma'lumot berilgan. Ular milliy va xalqaro darajada, hukumatlar va tashkilotlar tomonidan qabul qilingan.

Unda O'zbekiston siyosati hamda biznes va ijodiy natijalarga qanday ta'sir qilgani tasvirlangan. Ushbu bo'lim shuningdek, Britaniya Kengashi tomonidan taqdim etilgan dasturlarni ham tanishtiradi.

Bundan maqsad, ushbu loyihaning asosiy topilmalari va tavsiyalari uchun asos sifatida joriy iqlim va sayohat yo'nalishini baholashdir.

DRAFT

2 Jadval: O'zbekistonning kreativ sohalariga taalluqli milliy siyosati (qarorlari).

Qaror	Sana	Tavsif
Xalq hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari¹⁵ <i>Ko'proq ma'lumot olish uchun quyidagi siyosatga qarang.</i>	2021	<p>Mahalla tizimidagi ochilmagan imkoniyatlardan foydalanish, xalq hunarmandlari o'rtasida bilim almashinuvini ta'minlash, yangi savdo bozorlarini aniqlash, mahallalarda ta'lim va yoshlarni ish bilan ta'minlash (xususan, "usta-shogird" an'analari orqali).</p> <p>Chora-tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Xalq hunarmandchilik loyihalarini moliyalashtirish (oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida) - Hunarmand uyushmasi a'zolariga asbob-uskunalar, materiallar va h.k. va infratuzilma loyihalari (rivojlanish markazlari, maktablar, uy-muzeylar, ustaxonalar) sotib olish uchun imtiyozli kreditlar ajratish. - Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasidan xalq hunarmandlari, o'quvchilar va ustalar uchun materiallar, ish haqi, raqamli marketing (ichki va xalqaro) uchun subsidiyalar ajratish. - Toshkent, Nukus shaharlari va viloyat markazlarida xalqaro eksport va turistik yo'nalishlarga (xorijiy va ichki) xalq hunarmandchilik mahsulotlari savdo pavilyonlarini tashkil etish.
Xalq hunarmandchiligini yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida	2019	<p>Milliy an'analarni asrab-avaylash, bandlikni qo'llab-quvvatlash (ayniqsa, yoshlar, xotin - qizlar va kam ta'minlangan oilalar).</p> <p>Chora-tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Xalq hunarmandchiligining asosiy yo'nalishlari bo'yicha hududiy ixtisoslashuv. - O'zbekistonning xorijdagi elchilari xalq hunarmandchiligi mahsulotlarini targ'ib qilish hamda xalq hunarmandlarini o'z ishlarini taqdim etish va sotishda qo'llab-quvvatlash (shu jumladan, savdo uylari va do'konlarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash). - Xalq amaliy san'ati ustalarining Milliy katalogini va turizm sohasida faoliyat yurituvchi xalq hunarmandlar reestrini (2021-yilda 1500 nafar ro'yxatga olingan) soliq imtiyozlari qatorida yaratish.
Kulolchilikni	2021	An'analarni asrab-avaylash, ishlab chiqarish hajmini oshirish, xalqaro mavqeini oshirish hamda yoshlarni

¹⁵ The National Centre of Legal Information (2021a)

rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashni jadallashtirish chora-tadbirlari¹⁶		<p>sohaga jalb etish maqsadida mamlakat ichkarisida va xorijda brendlash uchun shart- sharoit yaratish.</p> <p>Chora-tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Xomashyo, yer, aloqa va uskunalar hamda imtiyozli kreditlar bilan ta'minlash - Kulolchilik markazlari, galereyalar va ishlab chiqarish markazlarini yaratish (kulolchilik markazlari mulk va yer solig'ining aniq stavkalari va mulk huquqi bilan birga bo'lishi kerak). - Usta-shogird maktablari faoliyatini takomillashtirish orqali xalq hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash va yoshlarni keng jalb etish. - Ichki sotish (turizm bilan bog'liq) va kulolchilik (ko'rgazma zallari, raqamli platformalar) eksportini qo'llab-quvvatlash uchun subsidiyalar ajratish. - Xalq hunarmandlarini o'qitish uchun subsidiyalar ajratish (materiallar, ish haqi va boshqalar).
Xalqaro xalq amaliy san'ati festivalini o'tkazish chora-tadbirlari¹⁷	2019	<p>Qo'qon shahrida UNESCO qoshidagi Xalqaro xalq amaliy san'ati festivalini o'tkazish va mamlakatda soha rivojini, jumladan, ta'lim va milliy o'zlikni anglash orqali qo'llab-quvvatlash.</p> <p>Chora-tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Har ikki yilda bir marta aniq ilmiy-amaliy konferensiya bilan festival o'tkazish. - Festival oldidan ko'rgazma va tanlovlar o'tkazish bilan iste'dodlarni jalb etish dasturini joriy etish. - "Qo'qon – jahon xalq hunarmandlari shahri" brendini va turizm imkoniyatlarini targ'ib qilish - Avlodlardan avlodga bilim va ko'nikmalarni yetkazish, ta'lim va martaba yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlash.
Turizm, madaniyat, madaniy meros va sportni yanada rivojlantirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish to'g'risida¹⁸	2022	<p>Ilgari qabul qilingan farmon asosida infratuzilmani jadal rivojlantirish, ob'ektlardan samarali foydalanish va aholi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish.¹⁹</p> <p>Chora-tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun grantlar, shu jumladan raqamli marketing (veb-saytlar) va sayyohlik ko'rgazmalarida (ichki) va xalqaro yarmarkalarda ishtirok etish.
Kino san'ati va kino industriyasini sifat	2021	<p>Milliy kinematografiya sohasini rivojlantirish, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni yaxshilash, samarali ishlab chiqarish va tarqatish kanallarini ta'minlash.</p>

¹⁶ The National Centre of Legal Information (2021b)

¹⁷ The National Centre of Legal Information (2019)

¹⁸ The National Centre of Legal Information (2019)

¹⁹ The National Centre of Legal Information (2019)

<p>jihatidan yangi bosqichga ko'tarish va sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida ²⁰</p>		<p>Chora-tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Xorijiy kinokompaniyalar va investorlarni jalb qilish, hamkorlikda ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash. - Milliy filmlar va teleseriallar ishlab chiqarishni moliyaviy dastaklash, shu jumladan subsidiyalar ajratish. - Xorijiy va mahalliy kinokompaniyalar uchun O'zbekistonda audio-vizual asarlar yaratish uchun chegirmalar taqdim etish. - Ijodiy va texnik xodimlarning malakasini oshirish tizimini yaratish. - Mualliflik huquqini himoya qilishni, filmlarni tarqatish tizimini va milliy va xalqaro marketingni ta'minlash. - Yosh animatorlar ishtirokida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan milliy teleko'rsatuvlar tashkil etish.
<p>Madaniyat va san'atning jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida ²¹</p>	<p>2020</p>	<p>Madaniyat va san'atni modernizatsiya qilish, kadrlar tayyorlash, iste'dodlarni rivojlantirish va takomillashtirilgan ta'lim resurslarini (yoshlar uchun) ta'minlash. Bundan tashqari, madaniy xizmatlar va tadbirlarni, ayniqsa chekka hududlarda oshirish.</p> <p>Chora-tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Markazlashtirilgan portal orqali hodisalarni litsenziyalash monitoringi. - Yillik tasdiqlangan kalendar asosida o'tkaziladigan ommaviy tadbirlar. - Davlat miqyosidagi tadbirlarga ijodkor xodimlar va artistlarning ko'ngilli sifatida qatnashishini taqiqlash. - Davlat binolarida jonli kontsert dasturlari uchun ijara subsidiyalarini ajratish. - Mualliflik huquqini himoya qilishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlar maxsus palatani rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

²⁰ The National Centre of Legal Information (2019)

²¹ The National Centre of Legal Information (2019)

Boshqa tarixiy chora- tadbirlar quyidagilardir:

- [1996] “O‘zbeknavo” gastrol-konsert birlashmasini tashkil etish to‘g‘risida – hukumat tomonidan nazorat qilinadigan, musiqa va raqs san‘atining rivojlanishini, shu jumladan xalqaro tarmoqlarni qo‘llab-quvvatlovchi, gastrollarni muvofiqlashtirish va moliyalashtirishni nazorat qiluvchi ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi. ²²
- [1997] “Xalq amaliy san‘ati va hunarmandchiligini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” – O‘zbekiston “Hunarmand” uyushmasini tashkil etish hamda uyushma a‘zolarini soliq imtiyozlari bilan ta‘minlash.²³
- [1998] O‘zbekiston teatr san‘atini rivojlantirish to‘g‘risida – oylik jurnallarda chop etish, mutaxassislar tayyorlash ko‘lamini kengaytirish, oliy ta‘lim va zamonaviy ta‘lim kurslarini tashkil etish. ²⁴
- 2005] O‘zbekiston mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondini shakllantirish to‘g‘risida – mahalliy ommaviy axborot vositalari faoliyatini demokratlashtirish va liberallashtirishni qo‘llab-quvvatlash, jumladan, tadbirlar, dasturlar, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash uchun jamoat fondini tashkil etish. ²⁵

Xalqaro tashkilotlar boshchiligidagi dasturlar

Britaniya Kengashi

- **Creative Spark:** Oliy ta‘lim yo‘nalishidagi tadbirkorlik asoslarini joriy qilish dasturi yetti mamlakat, jumladan, O‘zbekistondagi talabalar va yosh tadbirkorlar uchun tadbirkorlik va biznes ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida Buyuk Britaniya bilan universitet va institutsional hamkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan 5 yillik (2018-2023 yillar) tashabbusdir. ²⁶
- **Crafting Futures:** Buyuk Britaniya va mahalliy tashkilotlar o‘rtasida madaniyatlararo almashinuv va birgalikda o‘rganish orqali biznesni o‘rganish, o‘qitish va kengaytirish imkoniyatlarini yaxshilashga yordam beruvchi 3 yillik dastur (2019-2022). Aspektlar ko‘nikmalar va innovatsiyalar, yangi auditoriya va bozorlarni rivojlantirish va ishlab chiqarish sifatini yaxshilashni o‘z ichiga oladi. ²⁷

²² The National Centre of Legal Information (1996)

²³ Hunarmand Association (2018)

²⁴ The National Centre of Legal Information (2005)

²⁵ The National Centre of Legal Information (2005)

²⁶ British Council (2018)

²⁷ British Council (2022)

- **Creative Producers:** Qozog'iston va O'zbekistonda zamonaviy eksperimental san'atga yo'naltirilgan kreativ ishlab chiqarishni rivojlantirish bo'yicha 3 yillik dastur (2019-2022).
- **Creative Central Asia Network:** Ololo kompaniyalar guruhi bilan hamkorlikda ijodiy iqtisodiyot sektorini ifodalovchi a'zolik guruhi. Creative Industries Forums hamda Creative Central Asian Cultural (2017-2019) Britaniya Kengashi tomonidan tashkil etilgan bo'lib hozirda O'zbekistonni ham o'z ichiga oladi. Vazifalariga birgalikda siyosatni ishlab chiqish, bilim almashish, ta'lim loyihalari, eksport va brendlashni qo'llab-quvvatlash kiradi. ²⁸

Shveysariya taraqqiyot va hamkorlik agentligi ²⁹

Shveysariya agentligi Jahon Banki, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi va Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Bankida Shveysariya boshchiligidagi saylov okruglariga qo'shilganidan so'ng 1992 yildan beri O'zbekistonda faoliyat yurtmoqda. Ishlar ko'lami bosqichma-bosqich kengayib bordi va 2002 yilga kelib Toshkentda Shveysariya Hamkorlik Byurosi (SCO) ochildi va shundan so'ng O'zbekiston va Shveysariya Konfederatsiyasi o'rtasida "Texnik-moliyaviy hamkorlik va gumanitar yordam to'g'risida"gi ikki tomonlama asosli bitim imzolandi. SCO hozirgi kunda Shveysariya agentligi va Shveysariya hukumati nomidan ikki tomonlama va mintaqaviy loyihalarni qo'llab-quvvatlaydi. ³⁰

Bunga Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati va san'ati dasturi kiradi. 2007 yildan boshlab u shahar va qishloq joylarda hunarmandlar (yakka tartibdagi va guruhlar) ni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ish olib boradi:

- Xilma-xillikni aks ettiruvchi va muloqot uchun maydonlarni ochadigan badiiy ifoda va madaniy ijodkorlikni rag'batlantirish.
- Madaniyat va san'at sohasidagi aktyorlarning badiiy va boshqaruv ko'nikmalari hamda malakalarini mustahkamlash uchun imkoniyatlar yaratish.
- Chekka qishloqlar va madaniy jihatdan noqulay joylashgan hududlarda faoliyat olib borish, madaniyat sohasidan unumli foydalanish va jamoalar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash.
- Mamlakatlararo almashinuv va hamkorlikni rivojlantirish, aloqalarni o'rnatish va bilim almashish.

2016 yilda dastur mahalliy tashkilotlarga salohiyatini kuchaytirish maqsadida ko'p yillik hamkorlik grantlari va dastaklashni o'z ichiga olgan holda kengaytirildi.

Loyihalarga quyidagilar kiradi:

Kinostudia Focus (Toshkent) –kino sohasidagi yosh mutaxassislarni zamonaviy mavzularda qisqa metrajli hujjatli filmlarni yaratishda dastak berish, mahorat darslari, o'quv safarlari (ichki va xalqaro yo'nalishlarda) va xalqaro ekspert tomonidan yordam ko'rsatilishi.

²⁸ Creative Central Asian Network (2021)

²⁹ Swiss Agency for Development and Corporation (2019a)

³⁰ Swiss Agency for Development and Corporation (2019b)

-
- **Ustoz va Shogird (Samarkand)** – viloyat teatrini rivojlantirish, olis va chekka hududlarda tomoshabinlar auditoriyasini kengaytirish va kreativ soha mutaxassislarini malakasini oshirish, teatr tomoshalari bilan yakunlash.

Dastur davomida O‘zbekistondan:

- 963 ta qatnashchilar madaniyat tadbirlarida qatnashdi
- 495 ta madaniyat va san'at kasb-hunarlarini bilan kreativ mahorat va ko'nikmalarini va texnikasini yaxshiladi
- 70 tadbirlar va 58 ta badiiy mahsulotlar dastur mobaynida ishlab chiqilgan
- 29,410 kishi dastur hamkorlari va loyihalaridan bahramand bo'lishdi

UNESCO

O‘zbekiston 2019 yilda Madaniy ifodalar xilma-xilligini muhofaza qilish va targ‘ib qilish to‘g‘risidagi konventsiyani ratifikatsiya qildi, unda:

*“2005 yilda qabul qilingan Konventsiya hukumatlar va fuqarolik jamiyatini yuzaga kelayotgan muammolarga siyosiy yechim topishda yordam beradi. Davlatlarning milliy va xalqaro miqyosda madaniy ifodalar xilma-xilligini muhofaza qilish va targ‘ib qilish siyosatini saqlagan holda, suveren huquqini tan oladi. Madaniy resurslarni boshqarishda axborotli va shaffof tizimlar uchun yangi asos yaratadi”.*³¹

Konventsiya orqali UNESCO va Koreya Respublikasi (Koreya Funds-In-Trust) (UNESCO-KFIT) o'rtasida hamkorlik rivojlanib, uchta tematik yo'nalish bo'yicha 14 mamlakatda 21 ta UNESCO loyihalarini qo'llab-quvvatladi. "Ko'nikmalarni shakllantirish" mavzusida u kreativ tadbirkorlik va biznesni yaratish, dizayn va marketingdan tortib biznes va menejmentgacha qo'llab-quvvatlashga intiladi. UNESCO-KFIT “O‘zbekistonda kino industriyasi barqarorligini mustahkamlash” loyihasi orqali ushbu soha oldida turgan asosiy masalalar: salohiyatni rivojlantirish, siyosatni baholash va bozorga kirish kabi masalalarni ko‘rib chiqdi.

2017-18 yillar o‘rtalarida:

- 75 nafar yosh mutaxassislar kino va hujjatli film ssenariysi va prodyuserlik yo‘nalishi bo‘yicha o‘qitilib, mahoratini oshirdi.
- 8 ta hujjatli film tayyorlandi
- O‘zbek va Polsha kinematografiya institutlari o‘rtasida xalqaro almashinuv (gastrollar va h.k.) orqali hamkorlik aloqalari o‘rnatildi
- Xalqaro miqyosdagi modernizatsiya qilingan sektor.³²

³¹ UNESCO (n.d.)

³² UNESCO & The Republic of Korea (2021)

Kreativ Sohalarni Xaritalash

Ushbu bo'limda biz O'zbekistondagi kreativ sohalarga oid mavjud ma'lumotlarni taqdim etamiz. Biz birinchi navbatda iqtisodiyotning har bir sektoriga to'g'ridan-to'g'ri kreativ sanoat birlashmalari va xodimlar sonini, so'ngra DCMS tomonidan belgilangan kreativ industriya kichik tarmoqlarini belgilaymiz (Metodologiyaga qarang).


Sektor Tahlili

3 Jadval: Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha ro'yxatga olingan kreativ sanoat birlashmalar soni (2020)

Kod	SEKTOR/subyektlar	Mikro	Kichik	O'rta	Katta	Barcha	Ishchilar
	Kreativ industriadagi korxonalar soni/ ishchilar soni	7931	1264	343	25	9563	84068
	ISHLAB CHIQRARISH	874	112	10	4	1000	7645
1811	Gazeta nashr etish	106	14	0	0	120	506
1812	Matbaa faoliyatining turlari	541	79	9	4	633	6217
1813	Matbuot va axborot texnologiyalari faoliyati	112	13	1	0	126	651
1814	Broshyura-muqovasi va bezatish faoliyati va tegishli xizmatlar	38	2	0	0	40	78
1820	Distribyutorlarda yozuvlarni ko'rsatish	23	0	0	0	23	26
3212	Zargarlik va shunga o'xshash buyumlarni ishlab chiqarish	54	4	0	0	58	167
	AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI	3284	263	56	6	3609	19752
5811	Kitob nashriyoti	179	7	0	0	186	538
5812	Ma'lumotnomalar va ro'yxatlarni nashr qilish	8	0	0	0	8	13
5813	Gazeta nashr etish	275	46	4	0	325	2058
5814	Jurnallar va davriy nashrlarni chop etish	155	19	0	0	174	633
5819	Bosma nashriyoti turlari	321	17	1	0	339	1016
5821	Kompyuter o'yinlarini yaratish	123	0	1	0	124	271
5829	Dasturiy ta'minot sohasi	263	37	6	0	306	1736
5911	Kino va teledasturlar ishlab chiqarish	259	11	4	0	274	1122
5912	Kino va teledasturlarning ishlab chiqarishdan keyingi bosqichi	51	1	0	0	52	96
5913	Filmlar, videolar va teledasturlarni tarqatish	38	0	0	0	38	63
5914	Film namoyishlari	90	5	0	0	95	251
5920	Fonogrammalar va musiqa	77	1	0	0	78	115


yozuvlarini nashr etish faoliyati							
6010	Radioeshittirish	75	6	1	1	83	685
6020	Televizion dasturlarni yaratish va taqdim etish faoliyati	66	9	19	5	99	5081
6201	Kompyuter dasturlash sohasi	736	62	15	0	813	3840
6202	Kompyuter texnologiyalari konsalting xizmatlari	337	20	3	0	360	1129
6312	Veb-portallar	84	3	2	0	89	285
6391	Axborot agentliklari faoliyati	147	19	0	0	166	820
	PROFESSIONAL ILMIIY-TEXNIK FAOLIYAT	3047	393	36	9	3485	21077
7021	Jamoatchilik bilan hamkorlik va aloqalar faoliyati	277	27	8	2	314	2897
7111	Arxitektura sohasi	889	276	25	7	1197	12943
7311	Reklama agentliklari	872	55	2	0	929	2808
7312	Ommaviy axborot vositalarida reklama	117	7	0	0	124	319
7410	Maxsus dizayn faoliyati	378	19	1	0	398	1078
7420	Suratga olish sohasi faoliyati	371	4	0	0	375	706
7430	Yozma va og'zaki tarjima	143	5	0	0	148	326
	TA'LIM	103	174	155	0	432	17108
8552	Madaniyat sohasidagi ta'lim	103	174	155	0	432	17108
	SAN'AT VA MADANIY-KO'NGILOCHAR BIZNES	623	322	86	6	1037	18486
9001	Teatr sohasi	56	6	31	4	97	5016
9002	Teatrlarni texnik qo'llab-quvvatlash	101	11	0	0	112	339
9003	San'at sohasi faoliyati	151	6	3	0	160	572
9004	Teatrlar va kontsert zallari faoliyati	90	3	10	1	104	2092
9101	Kutubxonalar va arxivlar faoliyati	179	244	23	0	446	7276
9102	Muzey faoliyati	8	13	16	1	38	2286
9103	Tarixiy obidalar va binolar, madaniy yodgorliklarni saqlash va asrab avaylash faoliyati	38	39	3	0	80	905

2 Jadval: Hajmi bo'yicha kreativ sanoat birlashmalar soni (2020)



2020 yilda yakka tartibdagi tadbirkorlarni hisobga olmaganda, 9563 ta kreativ soha birlashmalari qayd etilgan va 84068 nafar xodimlar mavjud (3-jadval). Boshqa ko'plab mamlakatlarda bo'lgani kabi, barcha sohalar bo'yicha kreativ birlashmalarning tarkibi asosan mikrobiznes (7931) (1-9 xodim), keyin kichik biznes (1264) (49 nafargacha) hisoblanadi. Kreativ birlashmalarning taxminan 83 foizida 10 dan kam odam ishlaydi, 4 foizdan kamida esa 50 yoki undan ortiq xodim ishlaydi (to'liq 50-249 nafar o'rta biznes bilan shug'ullanadi).

3 Jadval: Sektor bo'yicha kreativ sanoat birlashmalar soni (2020)



Sektor	Kreativ industriyada ishchi xodimlar soni	Umumiy ishchi xodimlar soni	Nechi % ishchi xodimlar kreativ industriyada
Ishlab chiqarish	7,645	1,597,737	0.5%
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	19752	58707	33.6%
Professional ilmiy- texnik faoliyat	21,077	131,634	16.0%
Ta'lim	17,108	1,158,161	1.5%
San'at va madaniy - ko'ngilochar biznes	18486	66975	27.6%

4 Jadval: Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha kreativ sanoat birlashmalari ishchi xodimlar soni (2020)

Yuqoridagi jadvalda standart taqsimotlarda ishlatiladigan iqtisodiyotning keng tarmoqlari bo'yicha kreativ biznes qanday taqsimlanganligi ko'rsatilgan. Axborot va kommunikatsiya sohasida eng ko'p kreativ birlashmalar (3609/38%), shuningdek, eng ko'p kichik tarmoqlar (19) va sohalar bo'yicha eng ko'p kreativ soha xodimlari (33,6%) (4-jadval) mavjud. Nashriyot,


dasturiy ta'minot, kino va televidenie, kompyuter dasturlari va kompyuter texnologiyalari xizmatlarida kuchli tomonlarga ega bo'lgan kichik tarmoqlar bo'ylab sezilarli o'zgarish ko'zga tashlanadi.

Ta'lim - bu biznesning deyarli 432 / 5% ni tashkil etadigan kreativ sanoat birlashmalari soni eng kam bo'lgan sektordir. Biroq, boshqa sohalarga nisbatan xodimlar soni ancha yuqori. Barcha kichik sektorlar ichida eng yuqori ko'rsatkich va boshqa sektorlarga qaraganda biznes hajmining bir tekis tarqalishi bilan ajralib turadi. Kreativ soha xodimlari shunga qaramay iqtisodiyotning ushbu sektoridagi bandliklarning kichik qismini (1,5%) tashkil qiladi.

Kichik tarmoqlarga kelsak, "Arxitektura sohasi" (professional ilmiy-texnik faoliyat doirasida) umumiy biznesning eng ko'p soniga ega (1197 / 12,5%).

Ishlab chiqarish

4 Jadval: Ishlab chiqarishda kreativ sanoat birlashmalar soni (2020)




4 jadvaldan ko'rinib turibdiki, kreativ sanoat birlashmalarining aksariyati mikrobiznes (88%) bo'lib, yuqorida aytib o'tilgan kengroq tendentsiyaga amal qiladigan o'rta va yirik korxonalar kam yoki umuman uchramaydi.

"Bosma nashriyoti turlari" boshqa kichik tarmoqlarga qaraganda har bir o'lchamdagi korxonalar soni (jami 633 ta) va ishchilar soni (6217) bo'lgan eng katta kichik tarmoqdir. U barcha ishlab chiqarish korxonalarining 63% ni, ishlab chiqarishdagi jami ijodiy bandlikning 81% ni tashkil etadi va yirik korxonalariga ega bo'lgan yagona kichik tarmoq hisoblanadi (4).

"Distribyutorlarda yozuvlarni ko'rsatish" eng kichik subyekt bo'lib, atigi 23 ta mikrobiznes va 26 xodimga ega.

Axborot- kommunikatsiya texnologiyalari

5 Jadval: Axborot- kommunikatsiya texnologiyalari (2020)




Boshqa tarmoqlarda bo'lgani kabi, korxonalarining aksariyati mikrobiznesdir (91%), ammo bu barcha tarmoqlar ichida eng yuqori ulushdir.

"Kompyuterni dasturlash sohasi" bu sektor uchun eng ko'p biznesga ega bo'lgan kichik sektordir (23%) va bu sektor eng ko'p mikro (736) va kichik (62) biznesga ega. "Televizion dasturlarni yaratish va taqdim etish" eng ko'p o'rta (19) va yirik (5) korxonalariga ega, ammo yana bu korxonalar sektorining kichik qismini tashkil qiladi.

"Ma'lumotnomalar va ro'yxatlarni nashr etish" eng kichik subtarmoq bo'lib, atigi 8 ta mikrofirma va 13 xodimga ega.

Professional ilmiy-texnik faoliyat


Figure 6: Professional ilmiy-texnik faoliyatida kreativ sanoat birlashmalar soni (2020)



Boshqa tarmoqlar singari, ushbu sohada korxonalarining aksariyati mikrobiznesni tashkil qiladi (88%). "Arxitektura sohasi" har bir toifadagi korxonalar soni va ishchilar soni bo'yicha eng ko'p (tarmoqdagi ijodiy bandlikning 61%). "Ommaviy axborot vositalarida reklama" subsektori korxonalar (124) va xodimlar (319) sonining eng kam qismiga ega.

Ta'lim sohasi

7 Jadval: Ta'lim sohasidagi kreativ sanoat birlashmalar soni (2020)




Ta'lim sohasi boshqa sohalarga qaraganda farqli tarkibga ega. Yirik birlashmalar yo'q bo'lsada biznes hajmining teng taqsimlanishi bilan ko'zga tashlanadi. Kichik biznesdan (40%) keyin mikrobiznes sektorining kichikroq qismini (24%) tashkil qiladi. Ammo eng muhimi, ikreativ sanoat birlashmarining faqat kichik bir qismi ushbu toifaga kiradi. Faqat bitta Muhim Infratuzilma (CI) kichik sektorini, "Madaniyat sohasidagi ta'lim" ni o'z ichiga oladi.

San'at va madaniy - ko'ngilochar biznes

8 Jadval: San'at va madaniy - ko'ngilochar biznes sohasida kreativ sanoat birlashmalar soni (2020)

SAN'AT VA MADANIY - KO'NGILOCHAR BIZNES

■ Micro ■ Small ■ Medium ■ Large



Mikrobizneslar ushbu sektorda kreativ birlashmalarning asosiy qismini (60%) tashkil etsada, boshqa tarmoqlar (ishlab chiqarish, axborot-kommunikatsiya, professional ilmiy-texnik faoliyat) ga nisbatan ancha pastroqdir. Shuningdek, kichik (31%) va o'rta (8%) korxonalarining salmog'i ancha baland.

"Kutubxona va arxivlar faoliyati" kichik sektordagi korxonalar sonining eng yuqori ko'rsatkichini taqdim etsa (tarmoqdagi ijodiy tadbirkorlik sub'ektlarining 43%), "Teatrlar faoliyati" esa biznes ko'lami katta bo'lmagan, lekin ko'p sonli xodimlarga ega korxonalar mavjud (27%).

"Muzey faoliyati" eng kichik korxonalar soniga (38 ta) ega, lekin xodimlar soni nisbatan ancha yuqoridir (2286 ta). "Teatrlarni texnik qo'llab-quvvatlash" (112 ta korxonalar va 339 ta xodim), "San'at sohasi" (160 ta tadbirkorlik sub'ekti, 572 nafar xodim) va "Tarixiy obidalar va binolarni, madaniy yodgorliklarni asrab-avaylash" (80 ta korxonalar va 905 nafar xodim) sohalari ancha orqada.

Dolzarb O'zgarishlar

2016-2020 yillar mobaynida barcha sohalarda kreativ korxonalar soni o'sdi (taxminan 60 foizga). Xodimlar soni ham o'sdi, lekin tarmoqlar/kichik sektorlar orasida bir oz tafovut mavjud (o'rtacha 11%). Yirik korxonalar soni o'zgarishsiz qoldi, lekin mikrobiznes sonining ko'rsatkichi eng yuqori o'sishni namoyish etdi.

Yalpi Ichki Mahsulot (YIM)

2021 yilda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yalpi ichki mahsulot (YIM) 734 587,7 milliard so'mni tashkil etdi. Quyidagi raqamlar 2021 yilda har bir jamlangan tarmoq bo'yicha YIM hajmini milliard so'mda ko'rsatadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, beshta sektor kreativ sanoat birlashmalarining eng ko'p qismini qamrab oladi va qo'shimcha ma'lumotlar taqdim etilmas ekan kreativ tarmoqlarining iqtisodiyotga qo'shgan hissasi haqida aniq bir xulosa chiqarish imkonsizdir. Buni ayniqsa, Ishlab chiqarish, Ta'lim va Professional ilmiy-texnik faoliyatlarida

yaqqol ko'rishimiz mumkin. Bu yerda kreativ sohalardagi bandlik sektorning kichikroq qismini tashkil qiladi.

- **Ishlab chiqarish:** 146,734.1
- **Axborot kommunikatsiyalari:** 11,659.7
- **Professional ilmiy – texnik sohalari:** 8,060.8
- **Ta'lim:** 40,735.5
- **San'at va madaniy - ko'ngilochar biznes:** 2,494.2
- **Jami:** 209,684.3

Subyekt Tahlili

5 Jadval: Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan kreativ sanoat birlashmalar soni (2020)


Kod	SEKTOR/subyekt	Mikro	Kichik	O'rta	Katta	Barcha	Xodimlar soni
	REKLAMA VA MARKETING	1266	89	10	2	1367	6024
7021	Jamoatchilik bilan aloqalar (PR) faoliyati	277	27	8	2	314	2897
7311	Reklama agentliklari	872	55	2	0	929	2808
7312	Ommaviy Axborot Vositalari (OAV)	117	7	0	0	124	319
	ARXITEKTURA	889	276	25	7	1197	12943
7111	Arxitektura yo'nalishi	889	276	25	7	1197	12943
	HUNARMANDCHILIK	54	4	0	0	58	167
3212	Zargarlik va shunga o'xshash buyumlarni ishlab chiqarish	54	4	0	0	58	167
	MODA VA DIZAYN	378	19	1	0	398	1078
7410	Dizayn faoliyati	378	19	1	0	398	1078
	FILM, VIDEO, TELERADIOESHITTIRISH VA SURATGA OLISH	950	36	24	6	1016	8004
5911	Kino, video va teledasturlarni ishlab chiqarish faoliyati	259	11	4	0	274	1122
5912	Kino, video va teledasturlar ishlab chiqarishdan keyingi faoliyat	51	1	0	0	52	96
5913	Kino, video va teledasturlarni tarqatish faoliyati	38	0	0	0	38	63
5914	Kinomexanika sohasi	90	5	0	0	95	251
6010	Radioeshittirish	75	6	1	1	83	685
6020	Televizion dasturlar va radioeshittirishlar faoliyati	66	9	19	5	99	5081
7420	Suratga olish sohasi faoliyati	371	4	0	0	375	706
	IT, DASTURIY TA'MINOT VA KOMPYUTER XIZMATLARI	1690	141	27	0	1858	8081

5821	Kompyuter o'yinlarini yaratish	123	0	1	0	124	271
5829	Dasturiy ta'minot sohasi	263	37	6	0	306	1736
6201	Kompyuter dasturlash sohasi	736	62	15	0	813	3840
6202	Kompyuter texnologiyalari konsalting xizmatlari	337	20	3	0	360	1129
6312	Veb-portallar	84	3	2	0	89	285
6391	Axborot agentliklari faoliyati	147	19	0	0	166	820
	NASHRIYOT ³³	1901	202	15	4	2122	12062
5811	Kitob nashriyoti	179	7	0	0	186	538
5812	Kataloglar va pochta ro'yxatlarini nashr etish	8	0	0	0	8	13
5813	Gazeta nashr etish	275	46	4	0	325	2058
5814	Jurnallar va davriy nashrlarni chop etish	155	19	0	0	174	633
5819	Bosma nashriyoti turlari	321	17	1	0	339	1016
7430	Yozma va og'zaki tarjima	143	5	0	0	148	326
1811	Gazeta chop etish	106	14	0	0	120	506
1812	Bosma nashriyot faoliyati	541	79	9	4	633	6217
1813	Bosma shakllarni tayyorlash va axborot informatsion faoliyat	112	13	1	0	126	651
1814	Broshyura-muqovasi va bezatish faoliyati va tegishli xizmatlar	38	2	0	0	40	78
1820	Distribyutorlarda yozuvlarni ko'rsatish	23	0	0	0	23	26
	MUZEY, GALEREYA VA KUTUBXONALAR	225	296	42	1	564	10467
9101	Kutubxona va arxiv faoliyati	179	244	23	0	446	7276
9102	Muzeylar faoliyati	8	13	16	1	38	2286
9103	Tarixiy obidalar va binolar, madaniy yodgorliklarni saqlash va asrab avaylash faoliyati	38	39	3	0	80	905
	MUSIQA, IJRO VA TASVIRIY SAN'AT	578	201	199	5	983	25242
5920	Ovoz va musiqa yozish	77	1	0	0	78	115
8552	Madaniyat ta'limi	103	174	155	0	432	17108
9001	Ijro san'ati	56	6	31	4	97	5016
9002	Ijro san'ati sohasini qo'llab-quvvatlash	101	11	0	0	112	339
9003	Badiiy ijod sohasi	151	6	3	0	160	572
9004	Madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish	90	3	10	1	104	2092

³³ Quyidagi tahlilda biz ushbu subyektni qamrab olmagan bo'lsakda, u biznesning ko'proq soniga ega va umuman kreativ sanoat birlashmalarining 22% ni tashkil etadi.

Xalq Hunarmandchiligi

9 Jadval: Xalq hunarmandchilik sohasida kreativ sanoat birlashmalar soni (2020)



Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, xalq hunarmandchiligi O'zbekistondagi eng kichik kreativ sektori bo'lib, kreativ sanota birlashmalarining 0,6 foizini va xodimlarning 0,2 foizini tashkil qiladi. O'rta yoki yirik biznes mavjud bo'lmasada, soha asosan mikrobizneslardan iborat (93%).

An'anaviy xalq hunarmandchiligi O'zbekiston madaniy merosi va kreativ industriyasining katta tarkibiy qismi hisoblanib, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi (amaldagi Qonun va Dasturlarga qarang). Masalan, Hunarmand uyushmasi ma'lumotlariga ko'ra: ³⁴

- O'zbekiston hukumati 2017-2020 yillarda 38 090 nafar usta va 59 075 nafar shogirdni yetishtirib chiqarish dasturini qo'llab-quvvatladi.
- 2019 va 2020 yillarda O'zbekiston hukumati 50 million dollar kredit ajratdi.
- 2019 yilda xalq hunarmandchilik sohasi eksporti 15,2 million dollarlik daromad oqimi bilan mamlakat iqtisodiyotiga ulkan hissa qo'shdi (25% ko'rgazmalar, 45% turizm, 5% onlayn savdo – sotiq va 25% shartnomalar).
- Hindistonning Surajkund shahrida bo'lib o'tgan 34 Xalqaro Crafts Mela butun dunyodan hunarmandchilik sohasi mutaxassislarini eg'gan tadbirda savdo – sotiqdan 120 000 AQSh dollar va International Folk Ark Market bozorida 550 000 dollarlik sof foydani qo'lga kiritdi.


Shuni alohida ta'kidlash joizki, DCMS tasnifi faqat bitta kichik sektorni o'z ichiga oladi - "Zargarlik va shunga o'xshash buyumlarni ishlab chiqarish" - bu O'zbekistondagi barcha xalq

³⁴ Hunarmand Uyushmasi (2021)

hunarmandchilik sanoat birlashmalarini va aholi bandligini ta'minlash sohalarini qamrab olmasligi mumkin. Buni aniqlash uchun qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazish lozim bo'ladi. Masalan, ushbu sanoat birlashmalari boshqa bir nom ostida qayd etilgan bo'lishi ham mumkin, deylik meros, turizm yoki ishlab chiqarish va hokazo. Asosiy natijalar shuni ko'rsatadiki, agar ko'plab sanoat birlashmalari yoki korxonalar mamlakat bo'ylab rasmiy ro'yxatdan o'tmagan bo'lsa, u holda ular haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish oson kechmaydi.

Film, Video, Teleradioeshittirish va Suratga olish Sohalarini

10 Jadval: Film, Video, Teleradioeshittirish va Suratga olish sohalarida kreativ sanoat birlashmalari soni (2020)



Film, video, teleradioeshittirish va suratga olish sohalarini kreativ industriyaning 10,6% ni tashkil qiladi. Bu mikrobiznes (93%) tomonidan boshqariladi, biroq bu sektorda boshqa ijodiy subsektorlarga (4% / 6) nisbatan eng ko'p yirik kreativ sanoat birlashmalari mavjud bo'lib, ularning aksariyati "Televizion dasturlar va radioeshittirish faoliyati" (5) va "Radioeshittirish" sohasi kiradi. Respublikadagi teleradioeshittirish tizimining eng yirik subyekti O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi ekanligini hisobga olsak, bu ko'rsatkich oldindan tahmin qilingan edi.


Ushbu kichik sektorda kreativ sanoat birlashmalari xodimlarining 9,5% ni tashkil qilishi, bu umumiy natijalar orasida eng yuqori ko'rsatkich ekanidan dalolat beradi.

IT, Dasturiy ta'minot va Kompyuter xizmatlari

11 Jadval: IT, Dasturiy ta'minot va Kompyuter xizmatlari sohasida kreativ sanoat birlashmalar soni (2020)

IT, DASTURIY TA'MINOT VA KOMPYUTER XIZMATLARI

■ Micro ■ Small ■ Medium ■ Large



IT, Dasturiy ta'minot va Kompyuter xizmatlari subyekti kreativ sanoat birlashmalarining 19,4% ni tashkil qiladi, mikrobizneslar esa 91% atrofida. Yirik sanoat birlashmalari mavjud emas.


"Kompyuter dasturlash" sohasi eng yirik subyekt bo'lib, eng ko'p kreativ sanoat birlashmalari (813) va xodimlariga (3840) ega.

Musiq, Ijro va Tasviriy san'at

12 Jadval: Musiq, Ijro va Tasviriy san'at sohasida kreativ sanoat birlashmalar soni (2020)

MUSIQA, IJRO VA TASVIRIY SAN'AT

■ Micro ■ Small ■ Medium ■ Large



Yuqoridagi jadvalda ko'rib turganingizdek, musiq, ijro va tasviriy san'at sektori boshqa tarmoqlarga nisbatan mikrobiznesning kichikroq ulushiga ega (59%) va barcha sektorlar ichida eng yuqori ulush va o'rta biznes soniga ega (20% / 983).

Kreativ sanoat birlashmalari ichida xodimlar sonining ko'pligi bilan ajralib turadi (30%) va ularning aksariyat qismi "madaniyat ta'limi" subyektiga to'g'ri keladi (67%). Buni O'zbekistonda rasmiy va norasmiy ta'lim tizimining mavjudligi bilan ham bog'lash mumkin. Biroq, ushbu vaziyatga aniqlik kiritish uchun qo'shimcha tadqiqotlar talab etiladi.

Biznes So'rovnomasi

Ilmiy - tadqiqotlarimizni to'ldirish, ma'lumotlarni yig'ish va fokus-guruh mashg'ulotlarini boyitish maqsadida 20 ga yaqin biznes egalaridan ularning statusi (holati), kelajakka bo'lgan umidlari va ambitsiyalari, shuningdek, sohada yechimini kutayotgan muammolar va ishga solinmagan imkoniyatlar haqida qisqa so'rovnomani to'ldirishlarini iltimos qildik. Bu o'ziga xos so'rovnoma bo'lib, natijalar faqat tasviriydir, lekin bizning soha ustida olib borgan tinimsiz ilmiy-tadqiqotlarimiz va sanoat birlashmalari bilan yo'lga qo'ygan hamkorlik natijalariga mos keladi.

Namuna

Namunalardan bittasi san'at va hunarmandchilik sanoat birlashmalari, media kompaniyalari, dizaynerlar, konsultantlar va tadbir tashkilotchi menejerlarini o'z ichiga oldi. Shuni ta'kidlash joizki, so'rovnomada qatnashgan mutaxassislarning aksariyati besh yillik biznes tajribasiga ega. Xarakterli xususiyatlarning xilma-xilligi va o'ziga hosligi keyinchalik yaxshi tashkil etilgan va tajribali tadbirkorlar jamoasini yaratishga muvaffaq bo'dik.

Olti nafari yakka tartibdagi tadbirkor bo'lib, to'rt nafari vaqti-vaqti bilan xodimlar yollaganliklarini, qolgan o'n nafari esa doimiy asosda to'liq yoki yarim stavkalik xodimlar bilan ishlaganliklarini ta'kidlab o'tishdi. So'rovnomada qatnashgan biznes egalarining yarmi kamida 10 yildan beri ish faoliyatini yuritayotganini, tan olingan savdo tashkiloti yoki assotsiatsiyasiga a'zo ekanligini, shuningdek, O'zbekistonda va chet elda savdo-sotiq sohasida ish olib borganliklarini ta'kidlab o'tishgan. O'n ikkita sanoat birlashmalari yillik pul aylanmalari 10 000 AQSh dollaridan oshganini ma'lum qildi. 17 ta sanoat birlashmalari boshqa kompaniyalar yoki tadbirkorlik subyektlari bilan hamkorlikda ish olib borganliklarini bayon qilishgan.

Natijalar

So'rovnomada qatnashgan tadbirkorlarning ko'pchiligi (yigirmata respondentdan o'n yetti nafari) shaxsiy rivojlanayotganlarini yoki kelajakdagi istiqbollariga optimistik ruhda qarashlarini ta'kidlab o'tishgan. Aynan ushbu savolga butun so'rovnomada barcha deyarli bir xil javobni bergan.

Shunga qaramasdan, bu so'rovnomada respondentlar O'zbekistonda kreativ industriyaning kelajakdagi ahamiyatiga nisbatan ko'proq turlicha talqinda javoblar berishgan. Ba'zi ishtirokchilar ijobiy fikrlarni bildirishgan bo'lsa-da, ko'pchilik davlat tomonidan qo'shimcha yordamsiz rivojlanish mumkinmassligi (sektorda o'z-o'zini boshqarishdan tortib hukumat tashabbuslarigacha) va iste'molchilarning savdo-sotiq bilan bog'liq muammoli xatti-harakatlari (tovarlarni arzon narxda ommaviy ishlab chiqarish) tufayli o'sish pasayishini ta'kidlab o'tishgan.

Ulardan kelajakka bo'lgan umidlari va ambitsiyalari, shuningdek, sohada yechimini kutayotgan muammolar va ishga solinmagan imkoniyatlar haqida so'ralganda ko'pchilik bunga muammo sifatida qarashni emas balki ish faoliyati mobaynida o'zlari duch kelgan byurokratik to'siqlar haqida ko'proq gapirishni afzal ko'rdilar. Ular cheksiz byurokratiya, qog'ozbozlik va soliq tizimi bilan bog'liq bo'lgan umidsizliklardan tortib, san'at sohasini ko'proq davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ko'proq malakali kadrlar bilan ishlashdagi qiyinchiliklar, auditoriya va bozorni rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj va sohani qo'llab-quvvatlovchi rasmiy yoki norasmiy institutlarning yetishmasligiga zarurat borligini alohida ta'kidlab o'tishdi. .

Sohada yechimini kutayotgan muammolar quyidagilar:

- Moliyaviy investitsiyalarni jalb qilish asosiy muammo bo'lganligini ko'pchilik ta'kidlab o'tgan. Respondentlarning faqat beshtasi bu masalada hech qanday qiyinchilik ko'rishmaganini ma'lum qilgan. Ikki ishtirokchi kreativ sanoat birlashmalarini moliyaviy dastklash uchun banklarga murojat qilganliklari, beshta tadbirkor bankdan foydalangani lekin pul aylanmasini oshirish maqsadida do'stlaridan va oila a'zolari tomonidan qo'llab quvvatlanganliklari va o'nta tadbirkor esa faqat do'stlari va oila a'zolari hamda investitsiyani o'z resurslariga tayangan holda faoliyat yuritganliklari haqida aytishgan. Va nihoyat ikki tadbirkor asosan davlat byudjet mablag'lari yoki grantlardan foydalanganliklarini ta'kidlab o'tishgan.
- Yetti nafar respondent bozor iqtisodiyoti haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lish nisbatan oson deb hisoblagan, uchta ishtirokchi esa buni o'ta mushkul deb ta'riflagan. Ajablanarlisi, ba'zi tadbirkorlar O'zbekistondagi ichki bozorni tushunishlari qiyin emassligini, ammo jahon bozorlari haqida batafsil ma'lumot olish murakkabligini ta'kidlab o'tishgan.
- Malakali kadrlarni topish va ish bilan ta'minlash sohasi. Sakkizta tadbirkor mutaxassislarni topish hech qanday qiyinchilik tug'dirmaganini, qolgan o'n ikkitasi esa "yomon emas, uddalasa bo'ladi" dan "Mars sayyorasiga uchish ancha osonroq" deb so'rovnomada turli xildagi qiyinchiliklarni qayd etib o'tishgan.

Asosiy xulosalar va tavsiyalar

Ushbu bo'lim tegishli adabiyot taqrizlari asosida tahlil qilish va manfaatdor tomonlarni jalb qilish natijalarini taqdim etadi. Hisobot O'zbekistonning madaniyat va kreativ sohasidagi qator kuchli qirralarini ochib beradi va o'z navbatida quyidagi masalalar hal etilsa va imkoniyatlardan samarali foydalanilsagina, o'sish uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qila oladi. Xulosa va tavsiyalarning barchasi tarmoqlararo va sanoat birlashmalariga xosdir.

Aniq ma'lumotlar

Kreativ industriyasi hozirda jahon iqtisodiyotining asosiy va rivojlanib borayotgan qismi sifatida keng tan olingan. Hisob-kitoblarga ko'ra, COVID-19 pandemiyasidan oldin ushbu sektor global yalpi ichki mahsulotning qariyb 3 foizini va butun dunyo bo'ylab 30 million ish o'rnini yaratgan. Alohida ta'kidlash joizki, boshqa sohalarga qaraganda kreativ sanoat birlashmalari ko'proq yoshlarni ish bilan ta'minlagan (30 va undan kichik yoshdagilar). UNESCOning 2018 yildagi hisobotiga ko'ra, o'rta muddatli istiqbolda ushbu sektor global yalpi ichki mahsulotning 10 foizigacha o'sishi mumkinligi taxmin qilingan.³⁵

O'zbekistonda hukumat bunyodkorlik sohasining iqtisodiy va madaniy ahamiyatini tobora ko'proq e'tirof etmoqda. "Qarorlar va Dasturlar" bo'limida tasvirlanganidek, so'nggi yillarda O'zbekistonda kreativ industriyasi asosiy qismlarining o'sishi va profilini qo'llab-quvvatlash uchun bir qator aniq tashabbuslar ilgari surilgan. Bu an'anaviy hunarmandchilik, kulolchilik va xalq amaliy san'ati kabi muhim madaniy meros tarmoqlarini, shuningdek, kino va teleradioeshittirishlar ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan zamonaviy shakllarni o'z ichiga olgan.

Hozirgi kunga kelib kreativ industriyasi siyosatni ishlab chiqishda va kreativ sanoat birlashmalarining o'zida izchil strategik obyekt sifatida tan olinishi cheklangan. Aniq ma'lumotlar sanoat miqyosidagi yondashuvning muhim sharti bo'lib, rejalashtirish uchun ishonchli bazani va sektorning o'sishi va rivojlanishini kuzatishning aniq vositasini ta'minlaydi. Metodologiyada qayd etilganidek, ushbu loyihani amalga oshirish jarayoni Davlat statistika qo'mitasiga O'zbekistondagi kreativ sanoat birlashmalarining batafsil xaritasini yaratish imkonini beruvchi to'liq ma'lumotlar bazasini taqdim etishni o'z ichiga oladi. Oldingi bo'limda batafsil bayon qilinganidek, biz ba'zi foydali ma'lumotlarni qo'lga kiritdik. Xususan, biznes va xodimlar soni bo'yicha, qaysidir ma'noda kreativ sanoat birlashmalarining mahalliy iqtisodiyotda sezilarli ishtiroki va keyingi o'sish potentsialiga ega ekanligini ko'rsatadi. Biroq, berilgan javoblardan ma'lum bo'ldiki, joriy ma'lumotlar strategiyani ishlab chiqish uchun sektorni aniq xaritalash uchun yetarli emas.

³⁵ The Economist (2021)

Oldinga siljish

O'zbekistonda kreativ sohalarning yanada batafsil va keng qamrovli xaritasini ishlab chiqish maqsadida biz qisqa va o'rta muddatli istiqbolda buni amalga oshirish uchun mumkin bo'lgan amaliy va real qadamlarni belgilab beruvchi Ma'lumotlarni Takomillashtirish Rejasini ishlab chiqishni tavsiya qilamiz. Bu sohani rivojlantirishga yanada umumiy va yaxlit yondashish imkonini beradi. Biz bunday rejada hal etilishi mumkin bo'lgan uchta asosiy yo'nalishni aniqladik.

- 1) **Ta'rif:** Hukumat soha mutaxassislari bilan maslahatlashgan holda xalqaro miqyosda foydalaniladigan biznes turlariga asoslangan (ISIC/NACE kodlari bo'yicha misolida) Kreativ Industriyasining yagona ta'rifini qabul qilishi kerak. Bu ta'rif o'z navbatida kelajakda ma'lumotlarni toplashda ishlatiladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, kreativ sanoat birlashmalarining yagona global ta'rifi mavjud emas, lekin turli mamlakatlar tomonidan qabul qilingan statistik tizimlarda yuqori darajadagi izchillik va mutanosiblik mavjud. DCMS (Buyuk Britaniya) UNESCO va UNCTAD kabi tizimlardan izchillik va taqqoslash, qiyoslash maqsadida manba uchun ishlatilishi kerak.
- 2) **Ishonchlilik:** Ushbu loyihani amalga oshirish jarayonida ishtirok etgan bir qator manbalar bizga shuni hazilomuz tarzda so'zlab berishdi: rasmiy statistik ma'lumotlar O'zbekistondagi mavjud kreativ sanoat birlashmalarining haqiqiy sonini va hajmini ancha pasaytirib ko'rsatilishi ham mumkin. Buning sababi butun mamlakat bo'ylab kreativ sanoat birlashmalarining rasman ro'yxatdan o'tmaganligi va ushbu ko'rsatkich 50% dan ko'proq bo'lishi ham mumkinligi taxmin qilinmoqda. Biz olgan ma'lumotlar ushbu taxminga aniqlik kiritishga yetarli emas edi, garchi hunarmandchilik kabi ba'zi kreativ sohalarda sanab o'tilgan sanoat birlashmalari soni juda ham kam edi. Bundan tashqari, boshqa mamlakatlarda kuzatilgani kabi, ushbu sektordagi ishchi kuchining muhim qismini frilanserlar (masofaviy ishchilar) tashkil qiladi deb faraz qilsak, ishchi kuchining hajmi sezilarli darajada kam ko'rsatilgan bo'lishiga isbot bo'la oladi. To'plangan ma'lumotlarning assortimenti va tafsiloti yaxshilangani va sektorning profili oshgani sayin hisobotdagi noaniqlik darajasi pasayishi kerak va biz ushbu pozitsiyani doimiy nazorat ostida bo'lishini tavsiya qilamiz.
- 3) **Qamrash:** Ma'lumotlarni Takomillashtirish Rejasi ijodiy sohalar uchun kelajakdagi siyosatni ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan asosiy ma'lumotlar to'plamiga aniqlik kiritishi va ustuvorligini ta'minlashi lozim. Bunga misol tariqasida, Oliy ta'lim siyosati va asosan universitetlarning moliyaviy avtonomiyasini olishimiz mumkin. Ushbu hisobotdagi kengroq xulosalarimizga muvofiq, ular kamida quyidagilarni o'z ichiga olishi tavsiya etiladi:
 - i) **Iqtisodiy Natija** – har bir kreativ subyektlar tomonidan ishlab chiqarilgan qiymat (masalan, GVA).
 - ii) **Geografiya** – mintaqalar o'rtasidagi farqlar va nomutanosibliklarning aniq tasvirini ta'minlash uchun subyektlar, qiymatlar va viloyatlararo bo'sh ish o'rinlari bo'yicha taqsimot.
 - iii) **Xalqaro Savdo** – subyektlar bo'yicha eksport hajmi va har bir subyektlar uchun eng yirik xalqaro bozorlarni aniqlash.
- 4) **Ishchi kuchi** - umumiy bandlik sohasi bo'yicha ko'rsatkichlariga qo'shimcha ravishda, kreativ sohadagi ishchi kuchining xilma-xilligini (masalan, jinsi, ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishi bo'yicha va hokazo) va kreativ sanoat birlashmalarida ishlaydigan shaxsiy ish bilan band bo'lgan frilanserlar va tadbirkorlar soniga aniqlik kiritish foydalidir.

An'anaviy va Zamonaviy

O'zbekiston kuchli va jo'shqin madaniy hayotga va boy madaniy- tarixiy merosga ega bo'lib, bu o'z navbatida jadal sur'atlarda o'sib borayotgan va hukumat tomonidan mamlakat iqtisodiyotining muhim qismi sifatida ko'rilayotgan turizm sohasi uchun ulkan zamin yaratadi. Ijtimoiy - iqtisodiy omillarning bu kombinatsiyasi an'anaviy san'at va xalq hunarmandchilik sohaslariga milliy-madaniy merosning asosiy elementlari sifatida qarash, xususan, ipak atlas matolari, an'anaviy liboslar, gilam to'qish va kulolchilik san'ati – kreativ industriyasida markaziy o'rinni egallashini va yuqorida ta'kidlanganidek, davlat siyosati va davlat byudjet mablag'lari tomonidan faol qo'llab-quvvatlanishini anglatadi.

Biroq, davlat tomonidan moliyalashtirib, davlat nazoratiga olingan va o'tmishni bahs-munozarasiz nishonlash deb ko'radigan sovet davridagi madaniyatni xalq san'ati va hunarmandchiligi sohaslariga boy milliy-madaniy merosi bilan birlashtirish harakatlari bo'lgan. Bu o'z navbatida an'anaviy madaniy ifoda shakllarini kreativ sohalarning faqat bir qismi sifatida kengroq idrok etish va kreativ soha o'laroq qabul qilinishi uchun kurashayotganligini anglatadi. Masalan, Toshkent shahridagi kompyuter o'yinlar ishlab chiquvchilar va "kreativ texnika" sohasi Samarqand gilamdo'zchilari bilan bir sohaga tegishli emas. Ushbu ikkala soha o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rishning potentsial foydalari hukumat siyosati yoki milliy iqtisodiyotga ulkan hissa qo'shishida ekanligi. Bular o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rish esa O'zbekiston hukumati uchun tushunarsiz va mavhum bo'lib qolmoqda.

Birinchi bo'lib, biz Samarqanddagi kreativ soha mutaxassislari bilan turizm sektoriga oid so'rovnomada ishtirok etishlarini so'radik. So'ngra, Toshkent shahridagi ko'ngilochar biznes, media va raqamli biznes vakillari bilan suhbatda bo'ldik. Ular yosh, yaxshi bilimga ega bo'lgan shahar yoshlari edi va ular bilan bo'lgan suhbatimiz mintaqadagi bozorlar hamda xalqaro bozorlardagi hozirgi holat haqida edi. Biz ushbu spektrning har ikki tomonidagi mavjud muammolarni bilish maqsadida ikkita shaharga nazar soldik.

Samarqand shahridagi xalq hunarmandlari ushbu sohada salmoqli muvaffaqiyatga erishganliklarini namoyish etdilar. An'anaviy ish amaliyotlarini qo'llab-quvvatlash va an'anaviy materiallardan foydalanish bo'yicha boy madaniy va ma'naviy - axloqiy majburiyatlarga qo'shimcha ravishda, ushbu respondentlar xaridorlar uchun qo'shimcha ishlab chiqarish qiymatini tan olishlarini ta'kidlab o'tdilar va ko'p hollarda bu ularga ekologik barqarorlik bo'yicha xabardor ekanliklarini ko'rsatdi.

Hukumat an'anaviy amaliyotga bo'lgan bunday sodiqlik iste'molchi uchun foydali ekanligini tan oladi, lekin sohani saqlab qolishga majbur bo'lgan ishchilarning yangi avlodi uchun unchalik jozibali bo'lmasligi mumkin. Shu sababli ham davlat ularni o'qitish va shogird yetishtirish ishlari uchun moliyaviy dastak beradi. Eksportga kelsak, kichik ishlab chiqaruvchilar 5000 AQSh dollarigacha bo'lgan savdo - sotiq uchun eksport soliqlaridan ozod qilinishini talab qilishlari mumkin. O'zbekiston hukumati o'zining barcha elchixonalariga O'zbekiston xalq hunarmandchiligini targ'ib qilish va ko'maklashish imkoniyatlarini ishlab chiqish, shuningdek, mamlakatni sayyohlik maskani sifatida targ'ib qilish vazifalarini topshirdi. Misol uchun, 200 kishini ish bilan ta'minlagan gilamdo'zlik sohasi tadbirkorlaridan biri o'z mahsulotining 90 foizi xalqaro mijozlarga yo'naltirilganini va bu bozor o'sishiga to'liq ishonchi borligini tushuntirdi. Shunga qaramay, Hunarmand uyushmasi raisi (mahalliy hunarmandlar) ayrim xalqaro

bozorlarga, xususan, AQSh, Yevropa Ittifoqi va Yaponiyaga eksport qilish murakkab viza va savdo muammolari tufayli to'sqinlik qilayotganini gapirib berdi.

Umuman olganda, Britaniya Kengashi tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan fokus-guruhlar hunarmandchilik sohasi va uning kelajagi haqida umumiy ijobiy fikr berdi. Quyida sektorni rivojlantirish bo'yicha tajribalari haqida ma'lumot berish uchun foydalanilgan "Crafting Futures" tadqiqotidan ikkita parcha keltirilgan:

Shu kungacha egallagan va zamonaviy bilimlarni saqlash va hujjatlashtirish haqida: "Biz O'zbekistonning hunarmandchilik tarixi va an'analarini o'rganish va arxivlash ishlari hamda sovetlar davrida yashiringan hunarmandchilik tarixini ochib berish bo'yicha katta sa'y-harakatlarning guvohi bo'ldik. Bu, ayniqsa, biz tashrif buyurgan kulolchilik ustalariga tegishli edi; Ko'pchilikning kutubxonalari, shuningdek, bir necha asrlarga oid kulolchilik namunalari mavjud edi va hunarmandchilikni tarixiy kontekst bilan bog'lashga chinakam xohish ham bor edi." ³⁶

Barqarorlik to'g'risida: "Biz g'arb bozorlari uchun jozibador bo'lib ko'rinadigan tabiiy materiallar va tabiiy bo'yoqlar bilan ishlaydigan juda oz sonli to'qimachilik hunarmandlari borligiga guvoh bo'ldik. Ammo ularning barqaror amaliyotlari va mehnatlari biznes modellari yoki marketing strategiyalari tomonidan to'g'ri qo'llab-quvvatlanmas ekanligiga ham shohidi bo'ldik." ³⁷

Toshkent shahrida kreativ soha mutaxassislari bilan bo'lib o'tgan suhbatlar chog'ida turli masalalar va istiqbollar o'rta taqdim qilindi. Biz bilan suhbatlashgan odamlarning aksariyati norasmiy 40 kishilik tadbirlar va festival targ'ibotchilari uyushmasi a'zolari, umuman olganda, hukumatdan yordam olish umidlari cheklangan yoki puch edi. Madaniyat vazirligi bilan yaqinroq doirada va o'zaro tushunish bo'yicha umumiy kuzatuvlar bo'lib o'tdi. Masalan, biznesning mohiyati haqida batafsil ma'lumot etishmasligidan kelib chiqadigan jonli tadbirlarni o'tkazishda va litsenziyalashda ma'muriy qiyinchiliklarni va qog'ozbozliklarni kamaytirishga yordam berishga kelishib olindi. Eng muhimi, musiqa, teatr va multimedia sohasidagi promouterlar kerakli ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassislarni yoki xalqaro tadbirlarni O'zbekistonga olib kelishda qator qiyinchiliklarga duch kelayotganini ta'kidlab o'tishdi. Bundan tashqari, ular chet elda o'z mahsulotlarini yoki ishlarini namoyish etishda ham qator qiyinchiliklarga duch kelayotganliklari haqida bir necha bor ta'kidlab o'tishdi.

Shunga qaramay, eng katta tashvish auditoriyani rivojlantirish zarurati edi (batafsil ma'lumot uchun "Xalqaro bozorlar va turizm"ga qarang) Bu birinchi navbatda individual iste'molchilarni nazarda tutgan bo'lsa-da, hukumat va oliy ta'lim tizimidagi davlat amaldorlari hali ham kreativ sanoat birlashmalari va umuman kreativ industriyasi mamlakat iqtisodiyoti va xalqaro imidjiga juda katta foyda keltirishi mumkin ekanligidan bexabardirlar. Respondentlarning ko'pchiligi oliy ma'lumotga ega, internetni yaxshi biladigan, xalqaro bilimga ega bo'lgan yoshlari bilan mashhur Toshkent shahri va qolgan butun mamlakat o'rtasida keskin tafovut borligini ham ta'kidlab o'tishdi.

Ommaviy axborot vositalariga kelsak, o'zbek kinoindustriyasi manfaatdor tomonlari bilan bo'lib o'tgan suhbatimiz chog'ida hukumat bilan yanada ishonchli va samarali munosabatlarni

³⁶ University of Leicester and Royal College of Art (2019) Pg.2

³⁷ Ibid. Pg. 6

shakllantirish bo'yicha takliflar bildirildi. Bu qisman ishlab chiqarishning uzoq va muvaffaqiyatli tarixiga asoslanib, asosan ichki bozor uchun mo'ljallangan edi. Shuningdek, O'zbekistonning ichki sarmoyani jalb qilish salohiyati haqida so'z yuritilar ekan, bu yerda ham biznes va boshqaruv ko'nikmalari, maxsus effektlar (SPFX) kabi sohalarda yuqori darajadagi raqamli ko'nikmalar, xalqaro bozorlarni tushunish hamda kino ijodkorlari hamda tele va kompyuter o'yinlar ishlab chiquvchilari uchun ssenariy va kontseptsiyani ishlab chiqish zarurligi ta'kidlandi. Bularning barchasi kelajakdagi barqaror o'sish uchun to'sqinlik qiladigan muammolar sifatida qaraldi.

Oldinga Siljish

Hukumat bilan ma'lumotlar va xaritalashni takomillashtirish (tegishli SIC va SOC kodlari bilan muvofiqlashtirishni ta'minlash), oliy ta'lim sohasida tadbirkorlik va biznes ko'nikmalarini oshirish bo'yicha ishlar ("Creative Spark" dasturi ushbu jarayonning dolzarb bir parchasi sifatida) O'zbekistonning kreativ tadbirkorlariga mamlakat iqtisodiy salohiyatining yanada samarali va ko'zga ko'rinadigan qismiga aylanishiga yordam beradi.

Eng muhimi, bu ikki xil elementni yanada samarali hamkorlikka olib kelishi mumkin: o'z marketingi uchun onlayn dunyoni qamrab oluvchi an'anaviy xalq hunarmandlari va raqamli tadbirkorlar xalqaro bozorlarda ham o'ziga xos O'zbekiston haqidagi hikoyalarni ishlab chiqish yo'llarini izlaydilar. Ushbu "hikoyalar" samarali marketing kampaniyalari uchun, ayniqsa, internet va ijtimoiy media olamida tobora markaziy o'ringa aylanar ekan, O'zbekistonda o'z madaniyati va Markaziy Osiyoning keng madaniyatiga xos bo'lgan ko'p sonli va jozibali hikoyalar va kechinmalar mavjud.

Biroq, bu kabi yondashuv oddiy holga aylanishidan oldin aniqlanishi va hal qilinishi kerak bo'lgan ba'zi madaniy muammolar bo'lishi mumkin. Bizga Toshkentdagi Hunarmandchilik muzeyida an'anaviy kulolchilik va zargarlik buyumlarini muzey hududida ochilgan o'tovga joylashtirganidan so'ng, ko'p o'tmasdan bu ko'rgazma muzey buyumlaridan ko'ra sayyohlar orasida ko'proq mashhur bo'ldi. Shunga qaramay, muzeyning yangi tayinlangan direktorining rayiga va xohishiga ko'ra bu ko'rgazma tex kunda yopildi. Uning fikricha, ushbu ko'rgazma mamlakatning yetarlicha zamonaviy imidjini bera olmas ekan va shu bahona bilan bu kabi o'ziga hos noyob ko'rgazma va o'tov yopib tashlangan.

Geografiyaga oid muammolar va to'siqlar

Biz yuqorida O'zbekiston poytaxti Toshkent shahri bilan Samarqand kabi qadimiy shaharlardagi kreativ sohaga tegishli sezilarli tafovutlar mavjudligi haqida to'htalib o'tdik. Lekin ta'kidlash joizki, boy xalq hunarmandchiligi va madaniyati an'analari bilan mashhur bo'lgan Farg'ona vodiysi hamda jadal rivojlanib borayotgan sayyohlik markazlari bo'lmish Buhoro, Xiva va Nukus shaharlari ham mavjud. Bizdagi ma'lumotlarga tayanib shuni aytmoqchimizki, ba'zi viloyat hokimliklari sayyohlarga yo'naltirilgan xalq hunarmandchiligi sanoat birlashmalariga eksport qilish bo'yicha yordam ko'rsatayotganini aytishdi. Lekin afsuski, biz sohani o'rganib chiqqanimizdan so'ng va cheklangan rasmiy ma'lumotlarni hisobga olsak, ko'proq "zamonaviy" elementlarini aks ettiruvchi kreativ sanoat birlashmalari yoki markazlari mavjud emas. Kompyuter o'yinlari, kino va televidenie, musiqa yozish studiyalari, zamonaviy moda, marketing

va reklama kabi kreativ sanoat birlashmalari asosan poytaxtda Toshkentda joylashgan. Yana bir festival promouterining ta'kidlashicha, viloyat aholisining atigi 5% madaniyat yoki san'at tadbirlarida qatnashish imkoniyatiga ega.

Vaholanki, texnologiya va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan tashabbuslar tufayli vaziyat asta sekin o'zgarib bormoqda. Bunga 13 ta biznes-inkubatorlar va korporativ akseleratorlarga aylanishi mo'ljallangan hududiy IT parklar kiradi. Bizning tadqiqot va izlanishlarimizdan shular ma'lum bo'ldiki, har yili mamlakat bo'ylab madaniyat, san'at va kreativ sohalar tomonidan yuzga yaqin yarmarkalar, festivallar, ochiq bozorlar va boshqa shunga o'xshash tadbirlar olib borilar ekan. Toshkentdagi xususiy ijodiy markazda musiqa, moda, marketing va brendlash kurslari hamda kreativ fanlar bo'yicha mahorat darslari, ma'ruzalar va seminarlar muntazam ravishda o'tkazib boriladi.

Eng muhimi, butun mamlakat bo'ylab yil sayin onlayn foydalanuvchilar soni ortib bormoqda. 2021 yil yanvar oyi statistik ma'lumotlarga qaraganda, O'zbekistonda taxminan 55,2% xonadonlar internetga ulangan, 69,2% aholi esa mobil aloqalaridan foydalanish imkoniyatiga ega edi. Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari 2020 yil boshidan 2021 yil oxirigacha hayratlanarli tarzda 44%ga o'sdi. Bu ko'rsatkich tabiiy ravishda pandemiya va unga bog'liq karantinlar tufayli jadallashdi. O'zbekiston aholisining qariyb 40 foizini 25 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi. Ta'lim darajasi va internet tarmog'ining jadal kirib borishi ortib borayotgan bir paytda, yoshlar orasida kreativ sohalariga bo'lgan qiziqish tobora ortib borishi shubhasizdir.

Fokus-guruh seminar mashg'ulotlarimiz davomida biz "uzoq tog'li hudud" deb ta'riflangan joyda o'tkazilgan badiiy ko'rgazma haqida eshitdik va bu ko'rgazma mahalliy yoshlarda katta qiziqish uyg'otganini aytdi. O'zbekistonda, boshqa joylarda bo'lgani kabi, iste'dod egalari har qadamdek go'yo, lekin imkoniyatlar juda ham cheklangan ayniqsa qishloq hududlarda.

Oldinga Qadam

Yuqorida ta'kidlanganidek, kreativ industriyalarning aniqroq va inklyuziv ta'rifini berish yaxshiroq ma'lumotlarni to'plash bilan birga, kreativ biznes va kreativ tadbirkorlarning (rasmiy va norasmiy) kutilmagan klasterlarini ochib beradi. Bu davlat yoki boshqa idoralar tomonidan tegishli yordam ko'rsatishni osonlashtirgan bo'lar edi.

Qisqa vaqt va cheklangan ma'lumot tufayli biz mahalliy, mintaqaviy va milliy ma'muriyat darajalari o'rtasidagi munosabatlar to'g'risida yetarlicha aniq tushunchaga ega bo'la olmadik. Shu bilan birga, ushbu sohada va barcha darajalarda hukumatning faol ishtiroki, Toshkentda joylashgan norasmiy savdo birlashmalari bilan o'tkaziladigan tadbirlarda yoki Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi bilan rasmiy aloqada bo'lgan agentliklar orqali tashkil etilgan kreativ soha tarmoqlarining o'sishini rag'batlantirishga yordam beradi.

Hisobotning boshqa qismida tasvirlangani kabi, geografik nomutanosiblikning yana bir muhim omili bu malaka va ta'lim olish imkoniyatlarining teng taqsimlanishidadir. Hunarmandchilik sohasida shogirdlik faoliyati va malaka oshirish tartibining hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi ko'plab hunarmandlar biznesining kelajagi va xalq hunarmandchilik an'analari haqidagi xavotirlarini yengillashtirib, o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Vaqt o'tishi bilan bu jarayon o'z-o'zidan xalq hunarmandchiligi sohalarida maxsus tashkil etilgan markazlar va klasterlar sonining o'sishiga olib kelishi mumkin.

Biroq, tadbirkorlik, biznes ko'nikmalari, menejment va ishlab chiqarish ko'nikmalari, raqamli texnologiyalar va auditoriyani rivojlantirishning o'ziga xos yo'nalishlari masalalarini hal qiluvchi rasmiy kurslarning yo'qligi, shuningdek, Intellektual mulkni (IP) himoya qilishning nisbatan past bahoda ekanligi butun mamlakat bo'ylab, ayniqsa Toshkent shahridan chekka hududlarda kreativ sohalarning jadal rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Sohaga tegishli ko'nikmalarni rivojlantirish zarurati ambitsiya masalasiga ham uzviy bog'liqdir. Boshlang'ich yoki o'rta maktablar o'quv dasturlarining ijodiy va madaniy fanlarga tegishli qismini qay darajada tashkil etilganini tekshirish imkoniyati bo'lmadi, lekin hukumat tomonidan ijodiy va madaniy sektorning ahamiyatini e'tirof etish, shuningdek, onlayn dunyosiga kirish imkoniyatlari ortib borayotgan bir paytda, kelajakda ko'proq yoshlarni ijodiy sohalarni kasb sifatida tanlashga undashi mumkin. Rasmiy ta'lim o'quv dasturi bilan bir qatorda festivallar, ko'rgazmalar, savdo uyushmalari va ommaviy axborot vositalari ushbu tendentsiyani jadal o'sishida muhim rol o'ynashi mumkin.

Institutsional Tuzilmalar va Tartibga solish

O'zbekiston hukumati kreativ industriyaning asosiy tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha ish olib borayotgan qator tashkilotlarni qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Ushbu tashkilotlarga quyidagilar kiradi:

- Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi (ACDF) madaniyat sektorida faoliyat yuritadigan muassasalarni va faoliyat turlarini moliyalashtiradi va targ'ib qiladi. Sahna san'ati, muzeylar va galereyalar shular jumlasidandir.
- Kino san'ati va sanoatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlovchi "O'zbekkino" milliy agentligi milliy film va seriallar ishlab chiqarishni hamda hamkorlikda kinomahsulotlar yaratishni moliyaviy dastak beradi va xorijiy kompaniyalar tomonidan O'zbekistonda suratga olish ishlari uchun litsenziya beradi.
- "Hunarmand" uyushmasi – O'zbekistonning an'anaviy san'at va hunarmandchiligini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, o'z tarkibidagi hunarmandlar va hunarmandlarni muvofiqlashtirish, ularning mahsulotlarini targ'ib qilish hamda ushbu faoliyatni davom ettirish uchun zarur bo'lgan ko'nikma, bilim va malakalarni o'qitishni qo'llab-quvvatlash orqali faoliyat yurituvchi davlat organi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, kreativ industriyasini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha bir nechta maxsus tashabbuslar mavjud. Ular asosan Britaniya Kengashi va Shveytsariya Taraqqiyot va hamkorlik agentligi kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda olib boriladi. Ushbu qo'llab-quvvatlash shakllaridan foyda ko'rayotgan va O'zbekistonda kreativ industriyasini qo'llab-quvvatlash va barpo etishda muhim rol o'ynaydigan soha mutaxassislari tomonidan yuqori baholanadi. Shu bilan birga, manfaatdor tomonlar, rivojlanishga to'siqlar yaratuvchi yoki biznesning tijorat va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishni osonlashtiradigan islohotlar uchun potentsial imkoniyatlar mavjud bo'lgan bir qator sohalarni aniqladilar. Ulardan ba'zilari allaqachon hukumat tomonidan tan olingan.

Ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan asosiy masalalar quyidagilardan iborat:

- **Byurokratiya:** Hukumat odatda kreativ sohalarga dastak berib keladi, lekin qo'llab-quvvatlash yoki to'siqsiz ruxsat olish uchun zarur bo'lgan ma'muriy tartib-taomillar haqida xavotirlar saqlanib qolmoqda. Ular murakkab va nazorat qilish qiyin deb qabul qilinadi. Bu esa o'z navbatida, rejalashtirilgan loyihalarning kechiktirilishiga va ba'zan bekor qilinishiga ham olib keladi. Masalan, jonli tadbirlarni tashkil qilish uchun zarur litsenziyalar va ruxsatnomalarni olish yoki moliyalashtirish dasturlari va qaror qabul qilish tizimlarining o'ta murakkabligi loyiha va dasturlarni samarali tashkil etishda qator qiyinchiliklar tug'diradi. Ba'zan mintaqaviy va milliy darajada ko'plab hokimiyat organlarining jalb etilishi asosiy sabab deb ko'rsatilgan. Biroq manfaatdor tomonlar ohirgi paytda sohada ba'zi takomillashtirish ishlari kuzatilganini (masalan, tadbirlarni o'tkazishda xavfsizlik talablarining kuchaytirilishi), lekin keyinchalik qayta ko'rib chiqish va soddalashtirish uchun imkoniyatlar mavjudligini ham ta'kidladilar.
- **Intellektual mulkni himoya qilish:** Intellektual mulkni (IM), ayniqsa mualliflik huquqini yaratish va ulardan foydalanish butun tarmoqdagi kreativ sanoat birlashmarining tijorat rivojlanishi va muvaffaqiyati uchun asosiy hisoblanadi. IMni himoya qilishning huquqiy asoslari mavjud bo'lib, u bosqichma-bosqich mustahkamlanmoqda. Masalan, O'zbekistonning Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) shartnomalariga qo'shilishi, kino va televideniye produserlariga intellektual mulkni himoya qilish sohasida ma'lum yordam ko'rsatilishi, shuningdek, jamoatchilik huquq egalari uchun to'plam jamiyat vazifasini bajaruvchi uyushma sifatida xizmat qilishi shular jumlasidandir. Shu bilan birga, IMni himoya qilish tizimini ilg'or xalqaro amaliyot standartlariga moslashtirish uchun uni takomillashtirish uchun hali ham muhim imkoniyatlar mavjudligi ta'kidlab o'tildi. Manfaatdor tomonlarni tashvishga solayotgani ham ijro, ham qoidalarning o'zi — amaldagi qonunlar har doim ham ba'zi sohalarda hayotga tatbiq etilmasligi va amaldagi qonunlar ijrosini yaxshilash ijodiy sohalarga sezilarli yaxshilanish va foyda keltirishi mumkinligi haqida ta'kidlandi.
- **Moliyaviy rag'batlantirish va aniqlik kiritish:** Hukumat ijodiy biznes va tadbirkorlarga barqaror o'sishga erishishga yordam berish maqsadida bir qator muhim fiskal choralarni joriy qildi. Bunga Hunarmand a'zosi sifatida an'anaviy hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchilar uchun soliq imtiyozlari va xalqaro kinoijodkorlarni O'zbekistonda ishlab chiqarish faoliyatini yo'lga qo'yishga chorlash uchun 20% chegirmalar kabi imtiyozlar kiradi. Manfaatdor tomonlar kengroq rag'batlantirish tizimi sektorning boshqa qismlari va kreativ sohalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynashi mumkinligini taklif qilishdi. Bir qator xalqaro modellar misolida o'rganilishi mumkin. Masalan, Buyuk Britaniyada mahalliy kino, televidenie va video ishlab chiqarish birlashmalarining barqaror o'sishini rag'batlantirish uchun imtiyozlar yo'lga qo'yilgan.

Ushbu chora-tadbirlardan tashqari, kreativ sektorni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari odatda to'g'ridan-to'g'ri grantlar shaklida bo'ladi. Bizga ma'lum qilishlaricha, yangi ro'yhatga olingan korxonalar va dastlabki bosqichdagi birlashmalar ko'p hollarda o'z mahsulotlarini tijorat yo'li bilan monetizatsiya qilish yo'llarini topishda qiynaladilar. Bu qisman ko'nikmalar bilan bog'liq

bo'lib (quyida "Ko'nikmalarni rivojlantirish" bo'limiga qarang), ba'zan qonunchilikda aniqlik yo'qligi hamda biznes operatsiyalarini tartibga soluvchi shartnoma asoslarining natijasidir. Masalan, kreativ mahsulotlarini qanday baholash va narxlash kerakligi va kreativ birlashmalari mutaxassislari o'z ijodlari va mahsulotlaridan tijorat maqsadlarida foydalanish uchun adolatli haq olish imkoniyatini ta'minlash mexanizmlaridan boxabar bo'lishlari shular jumlasidandir. Bundan tashqari, kontent yaratuvchilari ham o'z mahsulotlarini onlayn distributsiya qilish imkoniyatlarini o'ylab chiqishlari maqsadga muvofiqdir.

Oldinga siljish

Kreativ industriyasi turli xil profillar, muammolar va qiziqishlarga ega bo'lgan turli xil subyektlardan iborat. Shunga qaramasdan, yuqorida va ushbu hisobotning boshqa qismlarida tavsiflangani kabi ko'plab dolzarb muammolar mavjud. O'zbekistondagi kreativ sohalarda ishlayotganlar va ular bilan olib borilgan keng qamrovli muhokamalar asosida biz butun ijodkorlik sohalari uchun keng imkoniyatlar va muammolarni o'rganish va hal etish maqsadida sanoat va hukumatning hamkorlikda ishlashi uchun kuchli salohiyat mavjud ekanligini koryapmiz.

Shu sababdan, sektor kelajagiga oid umumiy strategiyani ishlab chiqish naqsadida, soha rahbarlari va yuqori lavozimli mulozimlarni birlashtirgan qo'shma hukumat-sanoat forumini tashkil etish masalasini ko'rib chiqishni tavsiya etamiz. Boshqa mamlakatlarda qabul qilingan bir qator modellar mavjud. Masalan, Buyuk Britaniyadagi Creative Industries Council (Kreativ Sanoat Kengashi) 2018 yilda kreativ sanoat birlashmalari uchun muhim "Sektor Bitimi"ni tuzishgan bo'lsa, Ozarbayjonda esa yaqinda tashkil etilgan Kreativ Sanoat Federatsiyasi shular jumlasidandir.

Ko'nikma va malakalarni shakllantirish

Kreativ sanoatning barcha subyektlari mutaxassislarning ijodiy qobiliyatlari va iste'dodlariga jiddiy tayanadi. Barqaror iste'dodlar tarmog'ini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar O'zbekistonda yoki dunyoning istalgan burchagida sohani rivojlantirish bo'yicha har qanday strategiyaning asosiy qismi bo'lishi mumkin. O'zbekiston hukumati muayyan yo'nalishlar bo'yicha ko'nikma va malaka oshirish, jumladan, an'anaviy xalq hunarmandchiligi bo'yicha kadrlar tayyorlash, shuningdek, kino sanoatidagi kreativ va texnik xodimlarni tayyorlash bo'yicha har tomonlama qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rmoqda. Bu xalqaro hamkorlar bilan ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan bir qancha tashabbuslar bilan bir qatorda, jumladan Britaniya Kengashining Creative Spark dasturi Buyuk Britaniya universitetlari va O'zbekiston OTMlari o'rtasida biznes va tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan 10 ta yangi hamkorlikni qo'llab-quvvatladi.

Ushbu loyihaga jalb qilingan va olib borilgan ilmiy tadqiqotlar kelgusida takomillashish uchun lozim bo'lgan keng imkoniyatlarni taqdim etdi:

- **Kreativ sohaga ilk qadam:** Manfaatdor tomonlar kreativ soha salohiyatini rivojlantirishning ilk bosqichi hozirda noaniq kechayotganligini, ayniqsa yoshlar kreativ sohalari taklif qilishi mumkin bo'lgan martaba imkoniyatlarini yoki ulardan qanday foydalanishni bilishlari shart emasligini tushuntirishdi. An'anaviy xalq hunarmandchiligi sohalarida hunarmandlar uchun zarur bo'lgan yuqori ixtisoslashtirilgan ko'nikmalarni

rivojlantirish uchun ko'p yillar kerak bo'lishi mumkin. Crafting Futures hisobotida ta'kidlanganidek, diqqat markazida hali ham shogird yetishtirish orqali "hunarmandchilik bilimlarini avloddan avlodga uzatish"ga katta urg'u beriladi.³⁸ Crafting Futures hisobotida tezroq o'rganish usullariga o'tishga bo'lgan iqtisodiy bosim va tajribani susaytirmaslik zarurati o'rtasidagi nomutanosiblikni topdi. Tarixdan bu sohaga kirib kelayotgan stajyorlar yetishmasligi va stajyorlar uchun moliyaviy stipendiyalar, magistr'larga esa talabalar guruhrarini qabul qilishlari uchun subsidiyalar shaklida rag'batlantirish joriy etilganini aytishdi.

- **Biznes Ko'nikmalari:** Sohaning kelajakdagi rivojlanishi tadbirkorlik va biznes ko'nikmalari va imkoniyatlarini kengaytirishga bog'liq ekanligi aniqlandi. O'zbekistonda kuchli kreativ salohiyatga ega iqtidorli yoshlar yetishib chiqmoqda, ammo kreativ soha mahsulotlarini monetizatsiya qilish yo'llarini topish hali ham yo'lga qo'yilmagan. Ko'pgina boshqa mamlakatlarda bo'lgani kabi, kreativ industriyalar birinchi navbatda, mikro/kichik biznesdan tashkil topgan alohida ijodkor mutaxassislar bo'lib, ularning kun kechirishi uchun yetarli daromad topishlari qiyin bo'lishi mumkin. Bu muammo, ehtimol, ushbu hisobotning boshqa qismida qayd etilgan biznesni qo'llab-quvvatlash darajasi va investitsiya manbalari natijasidir.

Manfaatdor tomonlar, shuningdek kreativ industriyada qo'llaniladigan ta'lim va malaka oshirish kurslariga biznes, marketing va menejment ko'nikmalarini integratsiyalashuvini yaxshilash zarurligini bildirdi. Bu yangi ro'yhatdan o'tgan tadbirkorlarga, va ayniqsa shaxsiy kompaniyalarini tashkil etish istagida bo'lganlarga tijorat biznes-rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish va investitsiyalarni jalb qilishga yaxshiroq tayyorgarlik ko'rish imkonini beradi.

Oldinga Siljish

Kreativ soha salohiyatini rivojlantirishning ilk bosqichi har bir kreativ sektorning aniq xaritasini va jalb qilingan potentsial imkoniyatlarni o'z ichiga olishi mumkin. U maktab o'quvchilari va OTM talabalari uchun foydali bo'lishidan tashqari, shuningdek, yoshlarni kreativ sohalardagi mavjud imkoniyatlar haqida boxabar qilish va ularni ilhomlantirish uchun qo'shma sanoat - hukumat kommunikatsiyalari dasturiga aylantirilishi mumkin. Moliyaviy rag'batlantirishni potentsial ko'nikmalar va iste'dodlar tanqisligi xavfi ostida bo'lgan kreativ industriyasining boshqa sohalariga ham kengaytirishni ko'rib chiqish mumkin.

Biznes ko'nikmalariga kelsak, sektor bo'ylab kuchli va kengroq hamkorlar tarmoqlari tajriba va eng yaxshi amaliyotni targ'ib qilish orqali ham muvaffaqiyatga erishish mumkin. **Creative Spark Dasturi** orqali yo'lga qo'yilgan xalqaro hamkorliklar asosan birlashmalar va tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgandir. Shu sababli, sanoat va hukumat uchun ushbu dastur orqali to'plangan tajriba va ilg'or xalqaro amaliyotga suyangan holda ish yuritishlari nur ustiga a'lo nur bo'lar edi.

³⁸ University of Leicester and Royal College of Art (2019) Pg.4

Moliya va investitsiyalar

O'zbekistonning kreativ industriyasiga sarmoya kiritish sovet davridan qolgan muhim davlat subsidiyasi va madaniyat sohasi faoliyatini nazorat qilish bir tomondan dastak bersa, ikkinchi tomondan esa to'sqinlik qiladi. Shu sababli, madaniyat sohasi faoliyatining katta qismi kreativ industriyaning bir qismi sifatida ko'rilmaydi va tijorat maqsadida faoliyat yuritayotgan ko'plab kreativ soha birlashmalari qonuniy madaniyat sohasi faoliyati sifatida tan olinmaydi. Aralash davlat va xususiy tashabbuslar moliyalashtirish manbalarining o'ziga xos xususiyati emas va yashirin korruptsiya omillari borligi haqida shubhalar mavjud. Tijorat va notijorat sohalar o'rtasidagi bu keskin farq, ayniqsa hukumatdagi idoraviy fikrlashning odatiy qarashlariga osongina mos kelmasligi sektor uchun aniq muammolarni keltirib chiqaradi.

Ushbu hisobotning boshqa qismida ta'kidlanganidek, ba'zi an'anaviy san'at va xalq hunarmandchiligi birlashmalari davlat tomonidan moliyalashtiriladi. Masalan, malaka oshirish va kadrlar tayyorlash bo'yicha ajratilgan subsidiyalar va soliq imtiyozlari shular jumlasidandir. Shuningdek, Milliy kinematografiya sohasini rivojlantirish jamg'armasi va kino san'ati va sanoatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlovchi "O'zbekkino" milliy agentligi milliy badiiy va hujjatli film va seriallar ishlab chiqarishni hamda hamkorlikda kinomahsulotlar yaratishni moliyaviy dastak beradi. Chetdan qaraganda, bu qo'llab-quvvatlash potentsial tijoriy jihatdan muvaffaqiyatli mahsulotga tikilgan sarmoya sifatida emas, balki badiiy mahorat va kimningdir ambitsiyalari asosida amalga oshirilgan bir loyihaga o'xshaydi. Yuqorida hisobotda ta'riflanganidek, manfaatdor tomonlar ko'pincha Shveysariya xalqaro korporatsiyasiga murojaat qiladigan sektor rivojlanishi uchun bir qator xalqaro qo'llab-quvvatlash fondlari ham mavjud.

Innovatsiya vazirligi tomonidan ajratilgan tadqiqot - ishlanmalar va startaplarni qo'llab-quvvatlash uchun katta mablag'lar mavjud. Bizning kreativ tadbirkorlar bilan bo'lgan suhbatlarimizdan shular ma'lum bo'ldiki, bu mablag'lar asosan kreativ loyihalarga emas, balki texnologik biznes loyihalariga yo'naltirilgan bo'lib, tadbirkorlar qator murakkab byurokratik ma'muriy jarayonlardan o'tadi. Ushbu qiyinchiliklarga qaramasdan, jamg'arma mavjud va asosan innovatsion raqamli va texnologik biznesni qo'llab-quvvatlaydi va IT parklar (Geografik muammolarga qarang) va davlat tomonidan moliyalashtiriladigan inkubatorlar va biznes akseleratorlariga yordam beradi. Buni tasdiqlashning imkoni bo'lmasada, nisbatan arzon va malakali ishchi kuchiga ega bo'lgan Farg'ona vodiysida IT biznesga Xitoy sarmoyasi ortib borayotganini aytishdi. Bu raqamli sektorning rivojlanishida o'tish bosqichi bo'lishi mumkin va bu soha qisqa muddatli va cheklangan foyda keltirishi ham mumkin, chunki mintaqadagi boshqa mamlakatlar shu alfozda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga intilmoqda.

Ushbu qo'llab-quvvatlash tashabbuslari o'ta muhimdir, lekin asosan grantlar, subsidiyalar, soliq imtiyozlari va xalqaro agentliklar tomonidan seminar treninglar va malaka oshirish bilan cheklanadi. Mamlakatda tijorat - moliya sektori va kreativ soha o'rtasida juda kam bog'liqlik mavjud va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga tabiiy va keng tarqalgan qiziqish bo'lishiga qaramasdan, kreativ sektorda ma'lumotlar, biznes va marketing ko'nikmalarining yo'qligi san'at va madaniy ko'ngilochar biznes va xalq hunarmandchiligi sohalarida O'zbekiston xalqaro investorlar uchun hali hanuz yopiqlicha qolmoqda.

Bizning biznes so'rovnomamizda qatnashgan respondedntlar kelajak haqida deyarli optimistik ruhda edilar, ularning deyarli yarmi xalqaro savdo bilan shug'ullanadi. Shunga qaramasdan, ular boshqa sohalarda ham kreativ tadbirkorlikka xos cheklovlar borligini tasdiqladilar; faqat besh

nafari moliyalashtirish uchun banklarga murojaat qilganliklarini, oltitasi mablag' to'plashda qiyinchiliklarga duch kelganliklarini va sakkiztasi bozorga kirish haqida ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lishga qiynalغانliklarini aytdi. Bizning fokus-guruhlarimizdagi bir nechta respondentlar imtiyozli kreditlar zarurligi va potentsial investorlarning uzoq muddatli strategik istiqbollari haqida gapirdilar.

Oldinga Siljish

Kreativ sektorning boshqa ko'plab jihatlariga kelsak, to'liq ma'lumotlar, yuqori darajadagi biznes ko'nikmalar, xalqaro bozor ma'lumotlariga va biznes amaliyotiga oson kirish - barchasi tijorat investitsiyalari uchun yanada qulay va xavfsiz muhitni yaratishga yordam beradi.

Shuningdek, BMTning turli tashabbuslarni qo'llab-quvvatlaydigan BMTTD (UNDP) kabi agentliklari, shuningdek IT va texnologiya bilan bog'liq ko'nikmalarni rivojlantirish dasturlari va davlat subsidiyalari kabi qator imkoniyatlar mavjud. Samarqand shahriga buntunjahon UNESCO madaniy merosi maqomining berilishi unga xalqaro investorlar va moliyachilar orasida katta maqomni ham beradi.

Kelajakdagi harakatlar uchun tavsiyalar:

- **Ichki investitsiyalarni rag'batlantirish:** Madaniyat sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning uzoq tarixi va Toshkentdagi San'at va Madaniyat instituti kabi mavjud tashabbuslar hukumat uchun oson qadam bo'lib, jamoatchilikni jalb qilish maqsadida imtiyozli kreditlar ajratib yoki aktsiyalarga investitsiyalar kiritish shaklida kreativ sanoat birlashmalari o'rtasida vostachilik qilisa ham bo'ladi. Bu biznes investorlariga ishonch bag'ishlaydi, investitsiyalarni biznesni qo'llab-quvvatlash bilan bog'lash orqali biznes ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi va hukumatga kreativ sektordagi imkoniyatlar va muammolarni yaxshiroq ko'rish imkonini ham beradi. Osiyo, Afrika va Yevropaning qator mamlakatlarida bu kabi davlat idoralarining muvaffaqiyatli modellari mavjuddir.
- **Xalqaro biznesni rag'batlantirish:** Ko'plab festivallar, ko'rgazmalar va O'zbekiston elchixonalariga xalqaro savdoni qo'llab-quvvatlash talabi qo'yilgan bo'lishiga qaramasdan, o'zbek kreativ soha tadbirkorlarini tashqi bozorlarni o'rganishga undashning boshqa usullari ham mavjud. Masalan, xalqaro bozorlarga tashriflarni qo'llab-quvvatlash, xalqaro musobaqalarda qatnashishni yoki o'tkazishni qo'llab-quvvatlash va o'zbek brendlari xorijda reklama qilish orqali aloqalar o'rnatish mumkin. Ijodiy sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, shuningdek san'at va xalq hunarmandchilik strategiyalarini turizm sohasini rivojlantirish bilan birgalikda birlashtirish, boshqa mamlakatlardagi modellar misolida turizm va kreativ sanoat birlashmalari maxsus departament yoki vazirlik mas'uliyatiga va zimmasiga yuklatilish orqali takomillashtirish va taraqqiy ettirish mumkin.

Xalqaro bozorlar va turizm

Toshkent shahri Markaziy Osiyoning eng yirik shahri bo'lib, O'zbekiston esa mintaqadagi barcha respublikalar orasida eng zich joylashgan va aholi soni ko'pligi bilan ajralib turadi. Bu omillar

ko'plab bozorlarga kelganda tor milliy ma'noda emas, balki mintaqaviy nuqtai nazardan katta ahamiyat kasb etadi. MDHga a'zo davlatlar o'rtasida chegarasiz kirish/chiqish imkoniyati bilan sovet davridan qolgan yana bir merosdir. Yaqinda hukumat va biznes hamjamiyat hali foydalanilmagan xalqaro sayyohlik bozori imkoniyatlarini, mamlakat salohiyatini xalqaro miqyosda loyihalashtirish zaruriyatini va sobiq Sovet Ittifoqidan tashqaridagi xalqaro bozorlardan o'rganish va ular bilan shug'ullanish istagi tug'ilganini kech bo'lsada anglab yetdi. O'zbekiston bu salohiyatni pyqagan mintaqadagi yagona davlat emas. Butun mintaqada barcha sohalarda raqobat keskin kuchayib borayotgan nuqtaga aylanmoqda. Golland tadqiqot hisobotida qayd etilishicha:

*“Tarixiy – madaniy turizm mintaqaning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynadi. 2012 yilda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, Ozarbayjon, Qirg'iziston, Qozog'iston, O'zbekiston va Belarus o'lkalari turizm sohalari jahonda jadal o'sib borayotgan 10 talikka kiradi”.*³⁹

Ushbu hisobotda ta'kidlanganidek, davlat tomonidan ijodiy sektorni qo'llab-quvvatlash an'anaviy san'at va xalq hunarmandchilik bozoriga (asosan tovarlar), shuningdek, musiqa kabi jonli ijroga va yirtqich qushlarni uchirish (Yaqin Sharqdan tashrif buyuruvchilar orasida juda mashhur) kabi boshqa madaniy tadbirlarga qaratilgan xalqaro mehmonlarni jalb qilishning kalitidir. Biroq, bu ambitsiya ko'plab qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. An'anaviy materiallardan foydalanish va ish amaliyotlariga sodiqlik ishlab chiqarish hajmining ko'pincha past bo'lishiga olib keladi. Samarqandlik gilamdo'z tadbirkor ba'zi gilamlarni to'qish uchun yillar ketishiga alohida urg'u berib o'tdi. Ishlab chiqarish tezligini oshirish sifatga tahdid soladi, “Crafting Futures” da ta'kidlanganidek:

Madaniy meros va turizm o'rtasidagi muvozanat haqida: "Biz tashrif buyurgan bir qator ustaxonalar to'liq ishlaydigan xalq hunarmandchiligi ishlab chiqarish maydonlari sifatida faoliyat yuritilib, turizm sohasiga o'z eshiklarini ochdi. Bu faoliyat bilan shug'ullanganlarning ko'pchiligi o'z daftarchalarini ko'proq sayyohlar bilan osongina to'ldirishlari mumkinligini aytishdi, lekin ular o'z hunarmandchiligiga e'tibor berishlari kerak bo'lgan vaqtni himoya qilishlari kerakligidan xavotirga tushishdi. Kengroq miqyosda bu munozara biz tashrif buyurgan vazirliklar o'rtasida bo'lib o'tdi va Turizm soha mutasaddilari/ hokimiyat mulozimlari hunarmandchilikka asoslangan sayyohlik salohiyatini yaxshi bilgan holda (ayniqsa, Buxoro va Qo'qonda), Madaniyat vazirligi va Badiiy akademiya vakillari sifatiga bo'lgan ta'sirdan xavotirda ekanliklarini namoyish etishdi. Bundan tashqari, madaniy meros va hunarmandchilik sohalari va oziq-ovqat (gastronomik turizm) o'rtasida juda kuchli bog'liqlik hissi mavjud bo'lib, u hali turistik taklifda ham, tadqiqot amaliyotida ham foydalanilmagan.

*Pilot: turizmni rivojlantirish uchun barqaror biznes modellari bilan ishlash va eno-gastronomik turizm va xalq hunarmandchiligini barqaror rivojlantirishni birlashtiruvchi tarmoq tizimini yaratish.”*⁴⁰

Sifat muammosi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan yana bir soha bu dizayn muammosidir. An'anaviy xalq hunarmandlari xorijiy xaridorlar uchun mos va ommabop bo'lishi mumkin bo'lgan dizaynlarni yaratishga intilishlari kerakmi yoki bu mahsulotlarning o'ziga xosligini saqlagan holda

³⁹ UNESCO (2016)

⁴⁰ University of Leicester and Royal College of Art (2019) Pg.7-8.

mahsulot qiymatini pasayishiga rozilik berishlari lozimmi? Yana bir masala kichik ishlab chiqaruvchilarni jahon bozorlarida platformalashtirish bilan bog'liq bo'lib, brendlash va marketing ishlarining yangi usullari, jumladan, O'zbekiston elchixonalari va savdo uylari tomonidan yuqorida aytib o'tilgan talablarga e'tibor qaratildi.

Xalqaro ko'rgazma g'oyasi an'anaviy xalq hunarmandchiligi chegarasidan tashqariga chiqadi. Bir tadbirkorning bizga so'zlab berishi bo'yicha, moda dizaynerlari, musiqachilar va oshpazlar uchun xalqaro auditoriyaga mo'ljallangan xususiy tashkil etilgan festivalda o'zlarini tanishtirishlari lozim bo'lgan. An'anaviy san'at va xalq hunarmandchilik sohasi uchun yaqinda joriy etilgan soliq va bojxona imtiyozlari tufayli bu imtiyozlarni kengroq kreativ soha vakillari, jumladan, yakka tartibdagi kreativ tadbirkorlar uchun ham tatbiq etishga talab ortib bormoqda. Bir joyda ta'kidlanganidek, viloyat hokimiyatlari eksportni qo'llab-quvvatlashni taklif qilishgan, ayni paytda "Visit Uzbekistan" nomli promojurnali so'nggi to'rt yil ichida 30 dan ortiq nashrlarda chop etilgan bo'lib, eng so'nggisi Xitoyda bo'lib o'tgan Qishki Olimpiyada o'yinlari arafasida xitoy tilida, shuningdek dunyoning boshqa tillarida ham nashr etilgan.

Ushbu tashabbuslarning barchasi, samaradorligidan qat'i nazar, yaqinda pandemiyaning davom etayotgan oqibatlarini, yoqilg'i narxlarining oshishi, Rossiyaning Ukrainaga bostirib kirishi va uglerod gazini kamaytirish bo'yicha global majburiyatlarning barchasi turizm bozoriga salbiy ta'sir ko'rsatishi tabiiy holdir.

Biznes va auditoriyani rivojlantirish

Kreativ sohalarda tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish zarurati bilan bir qatorda, manfaatdor tomonlar auditoriyasini shakllantirishga ko'proq e'tibor qaratish zarurligini, xususan, talabni shakllantirish va kreativ kontentni Toshkentdan tashqaridagi hududlarda ham kengaytirish zarurligini ko'tardi. Bu muammo zamonaviy kontentni, jumladan audio-vizual soha va musiqani yaratuvchi yangi kreativ birlashmalarni boshqarayotganlar orasida dolzarb edi. Mahalliy ishlab chiqilgan kontent va zamonaviy san'at sohasi uchun tomoshabinlar darajasining pastligi va ushbu mahsulotlarni targ'ib qilishda faollikni oshirish uchun ko'proq yordam va muvofiqlashtirish zarurligi taklif qilindi. Hukumat madaniy dasturlarni ishlab chiqish kabi teatr sohasi va sahna san'ati uchun katta yordam beradi. Shu bilan birga, davlat tomonidan moliyalashtirish bir qator talablarni, jumladan, tahririy cheklovlarni ham keltirib chiqaradi. O'zbekistonda, shuningdek, xalqaro miqyosda raqobatdosh mahsulotlarni ishlab chiqarish korxonalarining o'sishi va barqarorligini davlat tomonidan moliyalashtirishdan mustaqil ravishda ta'minlash, barcha auditoriyani qamrab olish uchun zarur bo'lgan kontent doirasi va xilma-xilligini rivojlantirish uchun juda muhimdir.

Jonli tadbirlar bilan bir qatorda, onlayn reklama va chakana savdo barcha ijodiy sohalar uchun iste'molchilarga muhim yo'nalish sifatida tan olingan, xususan, butun mamlakat bo'ylab internet va mobil aloqa orqali onlayn foydalanish imkoniyatlarining keskin o'sishi (Geografik muammolarga qarang). Kelajakda kreativ sohalardan foydalanuvchilar auditoriyasini samarali qamrab oladigan va jalb qila oladigan onlayn mavjudlikni boshqarish uchun zarur bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlash tobora muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, televidenie, kino, video o'yinlar va musiqa san'ati kabi kontentga asoslangan sohalar o'z biznes modellarini onlayn, talabga muvofiq iste'molning o'sishi tufayli butun dunyo bo'ylab doimiy ravishda o'zgarib takomillashib borayotganiga guvohi bo'lyapmiz. Lekin internet maydoni an'anaviy san'at

bozoriga, reklama, onlayn sotish uchun tobora muhim bo'lib bormoqda. Masalan, ularning usullari, materiallari va kreativ mahsulotlar va amaliyotlar haqida O'zbekiston kreativ industriasini xalqaro miqyosda targ'ib qilish va obro'sini oshirishning muhim elementi sifatida aynan internetning ahamiyati cheksizdir. Kreativ sektorning barcha subyektlari, xususan, allaqachon raqamli makonda faoliyat yuritayotganlar bilan birgalikda ishlash uchun imkoniyat bo'lishi kerak. Yuqorida aytib o'tilgan mintaqaviy IT parklar kabi mavjud markazlar va tarmoqlardan foydalanish orqali onlayn mavjudlikni va profilini yaratishga yaqindan yordam beradi.

Kreativ sohalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mamnuniyat bilan qabul qilinadi va biz yuqorida hukumat-sanoat forumi uchun faoliyatni tasvirlab berdik. Shu bilan birga, manfaatdor tomonlar kreativ sohalarda o'zaro manfaatli sohalar hamkorlik qilishlari uchun o'z tarmoqlarini rivojlantirishlari kerakligini ham taklif qilishdi. Arxitektura va jonli tadbir / event menejerlari kabi sohalarida bir qancha guruhlar mavjud bo'lib, norasmiy ravishda faoliyat yuritadi va shu sababli rasmiy vakolatlar yoki tuzilmalarga ega emasligini eslatib o'tamiz. Muhokamalarimiz davomida aniqlangan umumiy manfaatlarga ega bo'lgan ayrim sohalarida harakat va o'zaro yordamni rag'batlantirish va muvofiqlashtirishga qodir bo'lgan sohaga rahbarlik qiluvchi organlarni rivojlantirishni rag'batlantirish masalasi ham ko'rib chiqilishi mumkin. Bunday tuzilmalar, shuningdek, boshqa mamlakatlardagi shu kabi sohaga oid tashkilotlar bilan xalqaro aloqalarni rivojlantirishga, O'zbekistonning kreativ sohasida xalqaro imidjini oshirishga, xalqaro bozorlarda savdo va hamkorlikni rivojlantirishga yordam berishi mumkin.

Oldinga Siljish

Hukumat va kreativ sektor birgalikda O'zbekistonni xalqaro miqyosga tanitish usuli va yo'llarini ishlab chiqish imkoniyatiga ega. Ta'kidlanganidek, san'at va xalq hunarmandchiligidagi an'anaviy kreativ ifodalari bilan kino, sahna san'ati va ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi zamonaviy ziddiyatlar, O'zbekiston o'zning arxitekturasi, san'ati va xalq hunarmandchiligi shaklidagi moddiy merosi va sport, musiqa va faoliyat ko'rinishidagi nomoddiy merosi haqida butun dunyoga hikoya qilib beruvchi noyob misollarga ega. Koreya hukumatining so'nggi 20 yildagi strategiyasi sayyohlar sonining ta'siridan qat'i nazar, mamlakat iqtisodiyoti va xalqaro miqyosdagi obro'sini oshirishda qanchalik samarali bo'lishi mumkinligini namoyish etdi.

Xulosa va Tavsiyalar

To'plangan ma'lumotlarning cheklanganligi sababli bizning xulosamiz mutlaqo taxminiydir. Lekin muhokamalarimiz va tahlillarimiz natijasida ijodiy iste'dodning ulkan resursi, boy madaniy merosi va kreativ sektorning salohiyatini o'z ichiga olgan hukumat haqida aniq tasavvur paydo bo'ldi. Agar bizdan kelajakdagi harakatlar uchun uchta asosiy tavsiyani aniqlashni so'rasalar, ular quyidagilar bo'ladi:

- Butun mamlakat bo'ylab kreativ tadbirkorlik faoliyati va unga asos bo'ladigan ma'lumotlarni to'liqroq xaritalash zarurati.
- Tadbirkorlik, ishlab chiqarish, vositachilik, marketing va biznesni rivojlantirish kabi biznes ko'nikmalariga bo'lgan ehtiyoj.
- Sanoat va hukumat o'rtasida yanada tizimli hamkorlik qilish zarurati.

Batafsilroq, biz xulosalarimizni uchta komponentga ajratdik:

Siyosat masalalari

- O'zbekiston hukumati tomonidan kelishilgan/qabul qilingan "kreativ industriyalar" deganda nimani anglatishini, mamlakat faoliyati va ustuvorliklarini aks ettiruvchi, lekin iloji boricha kelishilgan xalqaro ta'riflarga mos keladigan ta'rifga to'xtash.
- Kreativ sektorni tashkil etuvchi turli sohalardagi faoliyatni, jumladan, sohaning YQQ (Yalpi qo'shilgan qiymat - GVA) ga qo'shgan hissasi, mintaqaviy tarqalishi, xalqaro profili, ishchi kuchi tarkibi va malakasini qamrab olish uchun to'liq ma'lumotlar.
- Hukumat va kreativ soha vakillari imkoniyatlar va muammolarni muhokama qilishlari mumkin bo'lgan forum. Bunday tashabbus uchun shablonni taqdim etish uchun butun dunyo bo'ylab yaxshi amaliyotlardan ko'plab misollar mavjud.
- Kelajakda sohaga aloqador muhim ko'nikmalarga bo'lgan ehtiyojni yaxshiroq tahlil qilish va kreativ sanoat birlashmalarida martabaga jalb qilinishi mumkin bo'lgan yoshlar uchun yaxshi professional ma'lumotlar.
- Turli mintaqalar va shaharlarning kuchi va an'alarini aks ettiruvchi o'ziga xos markazlar va klasterlarning shakllanishiga va taraqqiyotiga yordam berish uchun milliy, mintaqaviy va mahalliy ma'muriy tuzilmalar o'rtasida integratsiyani takomillashtirish.

Biznes Masalalar

- Biznes va tadbirkorlik ko'nikmalariga ko'proq sarmoya kiritish.
- Kreativ biznes, asosan mikro va kichik o'rta korxonalar uchun maqsadli moliyaviy rag'batlantirishni takomillashtirish.
- Hozirgi kunda davlat grantlari va subsidiyalariga bo'lgan tobelikdan ko'ra, tijorat investitsiyalarini, qarz yoki aktsiyalarni moliyalashtirish orqali rivojlantirish. Shu nuqtai nazardan, mustaqil kreativ biznesga sarmoya yo'naltirish va biznesni qo'llab-

quvvatlash uchun davlat tomonidan moliyalashtiriladigan "vositachi tashkilot" ko'plab mamlakatlarda sektorni rivojlantirishda bebaho dastak ekanligini isbotladi.

- IM (intellektual mulk) tizimini takomillashtirish va mustahkamlash va kreativ biznes hamjamiyatida IM ahamiyatini yaxshiroq tushunishga ko'maklashish.
- Kreativ sektor uchun ichki investitsiyalarni rag'batlantirish uchun zarur bo'lgan qo'llab-quvvatlash xizmatlari va ma'lumotlariga mos keladigan xalqaro bozorlar va savdo yarmarkalariga chiqishga intilayotgan tadbirkorlar va birlashmalarni qo'llab-quvvatlash.
- Kreativ sohalarning "taklifidan" ko'ra, "talab"ini ko'rib chiqib auditoriyani rivojlantirishga e'tibor qaratish.

Sanoat uchun

- Kreativ soha mutaxassislarini o'zaro qo'llab-quvvatlashi mumkin bo'lgan va ma'lum bir sohalarda, mintaqalar yoki subyektlarni (masalan, frilanserlar, mikrobizneslar) hukumatga mahalliy, mintaqaviy va milliy darajada vakillik qila oladigan rasmiy va norasmiy savdo uyushmalari va qo'llab-quvvatlash tarmoqlarini rivojlantirish.
- Xalqaro bozor imkoniyatlarini yaxshiroq tushunish va Markaziy Osiyo va butun dunyo bo'ylab investorlar bilan aloqalarni o'rnatish uchun kreativ tadbirkorlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yo'lida hukumat va xalqaro agentliklar bilan hamkorlik qilish.
- An'anaviy san'at va xalq hunarmandlarini raqamli texnologiyalar dunyosini marketing vositasi sifatida, O'zbekistonning madaniy merosiga xalqaro qiziqishni uyg'otish va o'z bizneslarini yanada samarali boshqarish vositasi sifatida qabul qilishga rag'batlantirish.

Ilovalar

Ma'lumotnomalar

- British Council (2018) Creative Spark: Higher Education Enterprise Programme. Online at https://www.britishcouncil.org/sites/default/files/3667_bc_creative_enterprise_education_report_03_red2.pdf Accessed 03.03.22.
- British Council (2022) [Crafting Futures | British Council](#). Accessed 03.03.22.
- Creative Central Asian Network (2021) [Creative Central Asia Network](#). Accessed 03.03.22.
- DCMS (2001) [Creative Industries Mapping Documents 2001 – Foreword](#). Accessed 28.04.22.
- DCMS (2016) [Focus on Employment](#). Accessed 28.04.22.
- DCMS (2021) [DCMS Sector Economic Estimates Methodology](#). Accessed 08.04.22.
- Hunarmand Association (2018) Homepage. Online at <https://hunar.uz/?&lang=en>. Accessed 03.03.22
- Hunarmand Association (2021) [Craftsmanship in Uzbekistan](#). Accessed 06.03.22.
- LGA (2020) [Creative places - supporting your local creative economy | Local Government Association](#) Accessed 03.11.21
- National Centre of Legal Information (2021a) Decree - Measures to Further Improve the System of Support for Handicraft Activities. Online at <https://lex.uz/docs/5807576>. Accessed 03.03.22.
- Nesta (2013) [Manifesto for the Creative Economy](#). Accessed 03.11.21. P
- Pratt et al. (2018) [Mapping the Creative Industries in Kazakhstan](#). Accessed 02.03.22
- State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics (2021) [Statistical classifiers](#). Accessed 06.04.22.
- Swiss Agency for Development and Corporation (2019a) Central Asian Arts and Cultural Programme Phase IV (2016-2019). Accessed 06.03.22
- Swiss Agency for Development and Corporation (2019b) [Strategy – Uzbekistan](#). Accessed 06.03.22.
- The Economist (2021) [Creative Industries Trade challenges and opportunities post pandemic](#). Accessed 20.04.22
- The National Centre of Legal Information (1996) Edict - On the Formation of the Touring and Concert Association "Uzbeknavo". Online at <https://lex.uz/en/docs/175425>. Accessed 03.03.22.
- The National Centre of Legal Information (2005) Edict - On the Development of Theatrical Art of Uzbekistan. Online at <https://lex.uz/en/docs/212031>. Accessed 03.03.22.
- The National Centre of Legal Information (2005) Edict - On the Formation of a Public Fund for the Support and Development of Independent Print Media and News Agencies of Uzbekistan. Online at <https://lex.uz/ru/docs/1159190>. Accessed 03.03.22.
- The National Centre of Legal Information (2019) Decree - Measures to Hold the International Festival of Folk Applied Arts. Online at <https://lex.uz/docs/5339494>. Accessed 03.03.22.

The National Centre of Legal Information (2019) Decree - Organization of Activities of The Ministry of Tourism and Sports. Online at <https://lex.uz/en/docs/5356617>. Accessed 03.03.22.

The National Centre of Legal Information (2019) Edict - On Creating Additional Conditions for Further Development of Tourism, Culture, Cultural Heritage and Sports. Online at <https://lex.uz/en/docs/5825010>. Accessed 03.03.22.

The National Centre of Legal Information (2019) Edict - On Measures to Raise the Film Art and The Film Industry to a Qualitatively New Level and Further Improve the System of State Support for The Industry. Online at <https://lex.uz/en/docs/5374442>. Accessed 03.03.22

The National Centre of Legal Information (2019) Edict - On Measures to Further Enhance the Role and Importance of Culture and Art in the Life of Society. Online at <https://lex.uz/en/docs/4829338>. Accessed 03.03.22.

The National Centre of Legal Information (2021b) Decree - Measures to Accelerate the Development and Support of Pottery. Online at <https://lex.uz/docs/5339494>. Accessed 03.03.22.

The Warwick Commission. (2015) [Enriching Britain: Culture, Creativity and Growth](#). Accessed 03.11.21

UNCTAD (n.d.) [Statistics | UNCTAD](#). Accessed 01.04.22

UNESCO & The Republic of Korea (2021) Creative Futures. Online at <https://en.unesco.org/creativity/sites/creativity/files/kfit-en-new2021.pdf>. Accessed 03.03.22.

UNESCO (2009) [UNESCO Framework for Cultural Statistics](#). Accessed 01.04.22

UNESCO (2016) [Culture Urban Future: Global Report on Culture for Sustainable Urban Development](#). Accessed 20.04.22

UNESCO (2022) [Reshaping policies for creativity: addressing culture as a global public good - UNESCO Digital Library](#). Accessed 01.04.22

UNESCO (n.d.) [The Convention on the Protection and Promotion of the Diversity of Cultural Expressions | Diversity of Cultural Expressions](#). Accessed 06.03.22.

University of Leicester and Royal College of Art (2019) [Scoping visit reports and pilot project proposals in Uzbekistan, Kazakhstan and Kyrgyzstan](#). Accessed 25.03.22

O'zbekiston Kreativ sanoat statistik kodlari

Quyidagi jadvalda DCMS tasnifi asosida O'zbekistondagi kreativ sohalarga tegishli statistik kodlar keltirilgan. Sariq rang bilan belgilanganlar noto'g'ri hisobot berish (ya'ni, kreativ sohalarga aloqador bo'lmagan boshqa sohalarni hisobga olinadi) bilan bog'liq xavotirlar tufayli tahlildan chiqarildi.

2 Jadval: Iqtisodiy faoliyat turlarining tasniflagichlari (OKED REV.2 / SIC Codes)

Bob	Guruh	Sinf	Nomi
C BO'LIMI: ISHLAB CHIQRISH			
18			Yozib olingan materiallarni chop etish va tinglash
	18.1		Chop etish va boshqa xizmatlar
		18.11	Gazetalarni chop etish
		18.12	Boshqa matbaa faoliyati
		18.13	Bosma shakllarni ishlab chiqarish va axborot faoliyati
		18.14	Kitobni qadoqlash va boshqa tegishli xizmatlar
	18.2		Audiomediadan yozuvlarni tinglash
		18.20	Audiomediadan yozuvlarni tinglash
J BO'LIMI: AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI			
32			Boshqa turdagi tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish
	32.1		Zargarlik buyumlari va shunga o'xshash mahsulotlarni ishlab chiqarish
		32.12	Zargarlik buyumlari va shunga o'xshash mahsulotlarni ishlab chiqarish
58			Nashriyot
	58.1		Kitoblar, davriy nashrlarni chop etish va nashriyot faoliyatining boshqa turlari
		58.11	Kitob nashriyoti
		58.12	Ma'lumotnomalar va varaqalarni nashr etish
		58.13	Gazetalarni chop etish
		58.14	Jurnallar va davriy nashrlarni chop etish
		58.19	Boshqa turdagi nashriyot faoliyati
		58.21	Kompyuter o'yinlarini chiqarish
		58.29	Boshqa turdagi dasturiy ta'minotni chiqarish
59			Kino va videofilmlar, teledasturlar, fonogrammalar va musiqalar ishlab chiqarish
	59.1		Kino va videofilmlar, teledasturlar ishlab chiqarish

	59.11	Kino va videofilmlar, teledasturlar, fonogrammalar va musiqalar ishlab chiqarish
	59.12	Kino va videofilmlar, teledasturlar ishlab chiqarishdan keying faoliyat
	59.13	Kino, video va teledasturlarni tarqatish faoliyati
	59.14	Film namoyishi
59.2		Fonogrammalar va musiqa yozuvlarini nashr etish faoliyati
	59.20	Fonogrammalar va musiqa yozuvlarini nashr etish faoliyati
60		Dasturlash va radioeshittirish
60.1		Radioeshittirish
	60.10	Radioeshittirish
60.2		Televizion dasturlar va radioeshittirishlar faoliyati
	60.20	Televizion dasturlar va radioeshittirishlar faoliyati
62		Kompyuter dasturlash, konsalting xizmatlari va dasturiy ta'minot sohasi
62.0		Kompyuter dasturlash, konsalting xizmatlari va dasturiy ta'minot sohasi
	62.01	Kompyuter dasturlash sohasi
	62.02	IT sohasida konsalting xizmatlari
63		IT xizmatlari faoliyati
63.1		Ma'lumotlarni joylashtirish va qayta ishlash, web-portallar xizmatlari
	63.12	Web-portallar xizmati
63.9		IT sohasining boshqa turlari
	63.91	Axborot agentliklari faoliyati
	63.99	Boshqa toifalarga kiritilmagan turli axborot xizmatlari faoliyati
M BO'LIMI: PROFESSIONAL ILMIY-TEXNIK FAOLIYAT		
70		Bosh kompaniyalarning faoliyati; Boshqaruv konsaltingi
	70.2	Boshqaruv konsaltingi
	70.21	Jamoatchilik bilan aloqalar (PR) va kommunikatsiya faoliyati
71		Arxitektura, muhandislik, texnik sinov va tahlil sohasidagi faoliyat
	71.1	Arxitektura sohasi, muhandislik tadqiqotlari va mazkur sohalarda texnik konultatsiya berish
	71.11	Arxitektura sohasi
73		Reklama faoliyati va bozor tadqiqotlari

	73.1		Reklama
		73.11	Reklama agentliklari
		73.12	Ommaviy axborot vositalarida reklama
74			Boshqa turdagi kasbiy, ilmiy- texnik faoliyat
	74.1		Maxsus dizayn faoliyati
		74.10	Maxsus dizayn faoliyati
	74.2		Suratga olish sohasi faoliyati
		74.20	Suratga olish sohasi faoliyati
P BO'LIMI: TA'LIM			
85			Ta'li
	85.5		Ta'limning boshqa turlari
		85.52	Madaniy ta'lim
R BO'LIMI: SAN'AT VA MADANIY – KO'NGILOCHAR BIZNES			
90			San'at va madaniy ko'ngilochar biznes
	90.0		San'at va madaniy ko'ngilochar biznes
		90.01	Teatr sohasi
		90.02	Teatrlarni texnik qo'llab-quvvatlash
		90.03	San'at sohasi faoliyati
		90.04	Teatrlar va kontsert zallari faoliyati
91			Kutubxonalar va arxivlar faoliyati
	91.0		Kutubxonalar va arxivlar faoliyati
		91.01	Muzey faoliyati
		91.02	Muzey faoliyati
		91.03	Tarixiy obidalar va binolar, madaniy yodgorliklarni saqlash va asrab avaylash faoliyati
		91.04	Botanika bog'lari, hayvonot bog'lari va qo'riqxonalar faoliyati
93			Sport va madaniy – ko'ngilochar biznes
	93.2		Madaniy – ko'ngilochar biznes
		93.21	Dam olish va istirohat bog'lari faoliyati
		93.29	Boshqa turdagi madaniy – ko'ngilochar biznes faoliyati